

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQUMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
T A R I X F A K U L T E T I

«Tarix» o'qitish metodikasi 4-kurs talabasi

Alimov Sirijiddin Sopar o'g'lining

„Amir Temur va Temuriylar jang san'ati tarixi”

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Q.Bahriddinov.

QO'QON – 2020

MUNDARIJA

Kirish3-b

**I Bob. Amir Temur va Temuriylar davri jang san'atining jaxon tarixida
tutgan o'rni6-b**

**1.1. Amir Temurning markazlashgan davlat qurish yo'lidagi say-harakatlari.
..... 6-b**

1.2. Amir Temur qo'shining tarkibi va tuzilishi.17-b

1.3. Amir Temurning janglarda qo'llagan harbiy taktika va usullari. 29-b

**II Bob. Amir Temur harbiy mahorati tarixini jahon tarixida o'rganilishi.. 47-
b**

2.1. Amir Temur harbiy yurishlari sabablari jahon tarixshunosligida.. .47-b

2.2 Amir Temur diplomatiyasining jahon miqyosida o'rganilishi . 47-b

Xulosa51-b

Foydalanilgan adabiyotlar55-b

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqilikka erishganimizdan boshlab mamlakatimiz hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligini barpo qilish bilan bir qatorda xalqaro maydonda ham o'zining barqaror tashqi va ichki siyosati, buyuk va qadimiy tarixi, takrorlanmas ma'naviy merosi va milliy qadriyatlari bilan dovrug' tarata boshladi. Garchi mustabid sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston tarixi fani to'laqonli tadqiqotini amalga oshira olmagan bo'lsada, o'zining boy tarixiy merosini ko'z qorachig'idek asrab keldi. Bu tarix sahifalari xalqimizning boy o'tmishini bizgacha yetkazib bera olgan qo'lyozma asarlarimiz va xalqimizning xotirasi edi. Ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lgan tarixga yangicha ko'z bilan, xolisona, ilmiy jihatdan hech bir mafkuraviy aqidasiz yondashish imkoniyati bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish“¹ bugungi kunda tarixchilar oldida turgan vazifadir.

„Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi“, - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev uchrashuvlardan birida, dunyoga dovrug' solgan Sohibqiron Amir Temur haqida gapirib, shuncha buyuk ishlarni bobomizning bir o'zlari qilmagandurlar, yonlarida kimlar bor edi, ularni ham bilishimiz kerak, degan edilar. Juda o'rinli fikr. Bu fikrga baholi qudrat javob berishni o'z burchimiz deb bildik. Sohibqiron Amir Temurning yonida hamsaf va unga muxolif sifatida kurashgan sarkardalarning son-sanog'i yo'q. Lekin ko'zga ko'ringan sarkardalar haqida mashhur tarixchilar G'iyosiddin Alining “Hindiston g'azovoti kundaligi”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” nomli kitoblarida ozmi-ko'pmi ma'lumotlar keltirilgan. Bevosita sarkardalar mavzusiga o'tishdan oldin, umuman, janglarda kuragi yerga tegmagan Sohibqiron zakovatini, Turon saltanatining harbiy salohiyatini anglamoq uchun Amir Temur zukkolik bilan barpo etgan, boshqargan, dunyoda yengilish nima bilmagan g'olib va muzaffar Turon lashkari tartibotini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyotimizning qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston,2017.-B.468.

2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.-b.140.

Mavzuning tarixshunosligi: 1987 yil 22 martda Parijda «Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish Fransuz-O'zbek madaniy hamkorligi Uyushmasi tuzildi. Bu uyushmaning asoschilari va rahbarlari professor L. Keren va doimo o'zbekona liboslar kiyib yuradigan Frederik Bopartyus-Bressan xonimdir. Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ'ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati va san'ati, Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi, Sharq va G'arb madaniyatlarining chorraxasi bo'lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan xissasi bilan keng Fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Bu boradagi amaliy harakat sifatida 1989 yildan beri Uyushma o'zining «Temuriylar» nomli davriy nashrinng 15 ta sonini chop etdi. Bu jurnallarda Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyati va san'ati to'g'risida qimmatli maqola va ma'lumotlar bosilgan (maqolalar ro'yhati ushbu risolaning ilovasida keltiriladi). Amir Temur tarixi manbalari Yevropa olimlari nazdida. L. Kerenni ta'kidlashicha Temurbek shaxsi va «Tuzuklariga» kelganda eng mashqqati ularni o'sha davr ruhida o'rganishdir. Temur tarjimai xoli yana shu bilan maroqligi, u noyob, o'ta qobiliyatli, harbiy, boshqaruv, san'at va siyosat kabi turli jabxalarda faoliyat ko'rsatgan shaxs. Agar uning nasliy kamtarinligini va o'sha Movarounnaxrdagi taxt uchun shiddatli ko'rashlar davrida xukmdorlikni qo'lga kiritishda qanchalik kuch sarflaganini olib qaraydigan bo'lsak o'zining barcha rejalarini amalga oshirishdagi zafarlari mo'jizali ko'rinadi. Bunda o'tmishdagi voqea va shaxslar xayotidan namunalar keltirish va qayyoslashga asoslanuvchi tarixchilar e'tiborini tortadigan alohida bir holat bor.

Temurbek beqiyos, uning miqyosi yuq. Biz Soxibqironning tarixiga doir Ashyoviy tomonlarni turli mamlakat solnomachilari tuzgan hujjatlar tufayli bilsakda, uning xukmdorligi, bashorat qobiliyati, zukkoligi va kuchli irodasi bilan do'st va muxolif kishilar hamda voqealarni idora qilish qo-biliyati siriligicha qoladi. Ayni uning idora qilish qo-biliyati XV asrdan beri tarixchilarni chalgitib, uning hukmdorligi va muzaffarligi jumboqlariga yechim topulmagan tarjimai xol mualliflarini bezdirib kelmoqda. Xatto yirik Fransuz tarixchisi Rene Grussening «Sahro Sohibqironi» nomli yirik asarida Temur xaqida mantiqsiz jumlar uchraydiki, ular Temur shaxsini asoslashda tarixchilar oldida turgan govlarni eslatadi. Bulardan asosiylari «Zafarnoma» nomi bilan mashhur tarixiy solnomalardir. Bu muhim manbalar o'sha davrdagi kishilar, mamlakatlar, voqealar, janglar, urf-odatlar va xokazolar haqidagi qimmatbaho ma'lumotlarga juda boy. Lekin ular Temur avlodlariga xushomad ma'nosidagi qasidalardir. Birinchisi Nizomiddin Shomiyning «Zafarnomasi» Temur zamonasida bitilgan, lekin Temurning o'zi tomonidan rad etilgan asar.

Mavzunig manbaviy asoslari: Shuningdek, bu mavzuga doir asosiy manbalar o'sh davrda yozilgan manbalar va u asarlarni chuqur o'rgangan olimlarning asarlaridir. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, G'iyosiddin Alining "Amir Temurning Hindistonga yurish kundaligi" Hamidullo Dadaboevning "Amir Temur harbiy mahorati". "Temur tuziklari" B. Ahmedov asarlari mihim manba bo'lib hizmat qilgan.

Bu asarlarda Amir Temur shaxsi va faoliyatiga doir asosiy malumotlar berilgan. Amir Temurning harbiy yurishlari davomida uning nihoyatda harbiy sohada tengsiz ekanligini butun dunyo guvoh bo'ldi.

Tadqiqotning davriy chegarasi: Mavzu Amir Temurning harbiy faoliyatiga bog'liq bo'lganligi uchun tadqiqotning davriy chegarasi 1336-yil dan 1405-yil gacha etib belgilandi. Amir Temur davlati shu yillar davomidagi harbiy yurishlari, iqtisodiyoti, davlat boshqaruvi, savdo va diplomatik munosabatlar keng yoritilib o'tilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishida Amir Temur davlati va uning harbiy mahorati janglardagi taktika va usullari qo'shini tarkibi asosiy maqsad qilib belgilangan. Bundan tashqari Amir Temur dvlatining boshqa davlatlar bilan bo'lgan diplomatic aloqalari ham yoritilgan.

Tadqiqot ob'yekti: Amir Temur va Temuriylar davri jang san'ati tarixi tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti: Tadqiqot predmeti Amir Temurning harbiy faoliyati uning markazlashgan davlat qurish yo'lidagi harakatlari tafsilotlari. Tadqiqotning nazariy metodologik asoslari: Bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida tarixni o'rganish borasida bildirgan fikrlari, milliy g'oya va mafkuraning eng muhim jihatlari, milliy davlatchiligimiz va ma'naviy merosimizni qayta tiklanishi borasida fikrlar, asarlar va ularda ko'tarilgan g'oyalar tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, ob'yektivlik, ilmiylik tamoyillariga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligini bitiruv malakaviy ishi doirasida Amir Temur jang san'atining ilmiy jihatdan tahlili tashkil etadi.

Ishning amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishing natijalaridan Amir Temur harbiy faoliyati va harbiy mahorati tarixi bo'yicha darsliklar, adabiyotlar, qo'llanmalar yaratishda, siyosiy tarixi va boshqaruv tizimi bo'yicha ilmiy maqollalar yozishda, tarix xrestomatiyalarini yaratishda, bakalavriatura va magistratura tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, shuningdek, O'zbekiston tarixi, O'zbek davlatchiligi tarixi, Manbashunoslik darslarida ma'ruzalar tayyorlashda, seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda, mustaqil ta'limga tayyorgalik ishlarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy bobni tashkil qiluvchi ikkita bob va beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan izohli so'zlar lug'ati hamda ilovalardan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 55 sahifadan iborat.

I.Bob. Amir Temur va Temuriylar davri jang san'atining jaxon tarixida tutgan o'рни.

1.1. Amir Temurning markazlashgan davlat qurish yo'lidagi say-harakatlari.

Ulug' bobomiz Amir Temur Kesh vohasining Xo'ja ilg'or qishlog'ida milodiy 1336-yil 9- aprelda tug'ilgan. Otasi Amir Tarag'ay Baxodir Markaziy Osiyoning ijtimoiy – siyosiy xayotida kata nufuzga ega, bo'lgan Barlos, qavmidan chiqqan o'rtahol beklardan bo'lib, chig'atoy xonlaridan bo'lgan Amir Qozog'on lashkarida xizmat qilgan.Xo'ja Ilg'or qishlog'I va uning atrofdagi yerlar unga mulk hisoblanar edi.

Onasi Tegin Begim Moh ham nasl – nasabdan, aslzodalar jumlasidan edi.U Buxorolik mashhur faqih Toj ash – shuaro (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan Ubaydulloh ibn Masudning avlodlaridan edi. Amir Temurning bobomizning tug'ilishiga oid turli turli xil rivoyatlarni uchratishimiz mumkun, Masalan, Salohiddin Toshkandiyning ³“Temurnoma” shunday rivoyat keltiriladi. “Shayx Alam shogirdlariga dars o'tib o'tirsalar, uning yoniga bir qalandar kelib, aytdi – Tegin Begim Moh degan qizingizni kuyovga bering, undan bir o'g'il tug'iladi,uni jahongi va sohibqirn derlar” deydi.Shunda Shayx Alam ey devona telba sen qaydan bilursan,dedilar.Qalandar aytdi men asori g'oyibni bilurman deb javob beradi.Shundan so'ng qizni kuyovga berishga chog'landilar .

Ayni paytda esa Tarag'ay Baxodir Shaxrisabzda ov qilib yurar edi.Shunda bir kiyik kelib qo'ylar orasiga o'tadi. Kiyik xar tarafga qochib,hurkib yugurardi.Qo'ylarning ichida bir qashqir turardi, Tarag'ay Baxodir kamon bilan urdi.Va cho'ponni uyqudan uyg'otdi.Cho'pon aytdi – meni eshitgin sening sababingni ko'rgan edim. Tarag'ay Baxodir aytdi – nima ko'rding? Cho'pon aytdi – yashil kiyimlik kishi kelib nido qildi, Tarag'ayga aytgil Shayx – ul Alam huzuriga borsin Sadr ash – sharatning Qizlarini olsun, mundin bir sohibqirn o'g'il paydo bo'lur dedi.Andin keyin Tegin Begim Mohni amir Tarag'ayga ahd qildilar. Shu tariqa ular turmush quradilar.Shundan so'ng Tegin Begim Moh to'lg'og'I yaqin kelgan vaqtda Yoqun honim yani onalari bir tush ko'radikim, Tegin Begim Moh etagidan bir nur chiqib mashriqdan mag'ribga borub olamni oldi. Bu rivoyat ham Sohibqironning dunyoga kelishidan dalolat edi. Amir Temur yug'ilgandan so'ng otasi Naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan Said Amir Kulolni G'uzordan olib kelishga chog'landilar. Tarag'ay Baxodir uni pirim, o'zini esa uning muridi deb bilar edi. Ayni shu paytda Amir Kulolning o'zi kelib qoladi. Tarag'ay Baxodir ning boshi osmonga yetadi. Doril – fotihadan keyin Amir Tarag'ay tashqariga chiqib, bir nech

³“ Temunoma”-S.Toshkandiy. T.: “Cho'lpon”-1991. 43-44- betlar.

daqiqadan so'ng, chaqaloqni olib kirib, uning qo'liga tutqazib o'glimni sizga nazr niyoz qildim, pirim uni og'illikga va muridlikga qabbul qilsangiz. Pir bolani avval yotqizdi, keyin qo'liga oldi. Bilki, bek o'tinchingni qabul qildim. Bu kundan etiboran o'g'lingiz bizga ham o'g'il ham murid bo'lg'ay. Inshoolloh...

⁴ “Amir Kulol bolaning yuziga tashlangan ipak yopinchig'ni ko'tardi, go'dakning yuziga bir zum tikilib turdi,so'ng boshini ko'tariib, Tarag'ay Baxodirga murojat qildi :O'lingning peshonasidan baxt – iqbol, sohibi davlatlik va jahongirlik nurlari porlab turibdi. U kelgusida yetti iqlimga podshoh bo'g'ay deb bashorat qiladi.” Amir Temur yoshligidan ziyrak, hamma narsani bilishga intiluvchi, serg'ayrat va jasur bo'lib o'sdi. To'rt yoshga to'lganda otasi uni Xo'ja ilg'orlik qissaxonning o'g'li Ortiqqa qo'shib qo'yadi. U Amir Temurdan olti – tetti yosh katta bo'lib otasidan eshitgan bir talay qissa bilardi. Amir Temurga ayniqsa, Xazrati Ali va Abu Muslim qisslarini sevib aytib berardi.

Amir Temur yoshlik chog'idan harbiy ishlarga o'zgacha muhabbat va ehtiros bilan qaray boshladi. Unda harbiy san'atga bo'lgan qiziqishning o'ta erta paydo bo'lishida padari buzrukvor Amir Tarag'ayning malum darajada tasiri borligi shubhasizdir. Tarag'ay Baxodir mardligi, shijoati va oliy janoblighi bilan nom chiqargan edi. . Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

Amir Temur Yoshligidan turli qahramonliklar qiladi. U tengdoshlari bilan yurgan bir paytda qirqtqa qul quduqdan suv chiqarolmayotgan bir paytda, uning bir o'zi quduqdan suv chiqarib beradi. Bu ham uning yoshligidan jismoniy jihatdan baquvvatligidan dalolat beradi. Amir Temur yetti yoshga to'lganda uning tanasidan yara chiqadi. Tabib unga yetti yil tegilmasa yaxshi bo'lishini aytadi. Shundan so'ng u yetti yil qo'lini yarasiga tekkizmaydi. Bu uning sabr – toqatda ham tengsiz bo'lganligidan darak beradi. Amir Temur yeti yoshiga to'lganda uning tanasida yara chiqadi. Tabib unga yetti yil teginilmasa yaxshi bo'lishini aytadi. Shundan so'ng u yetti yil qo'lini tekkizmaydi. Bu uning sabr-toqatda ham tengsiz ekanligidan darak beradi. Amir Temurda harbiy jang sana'tning rivojlanishida “Yoshligidan sipohiylarning o'gillari bilan xanjar, pichoq kamonlar bilan qurollanib, kun-ora qurollanib ikki guruhga bo'linib, “urush-urush” o'ynashar edi”. Bunday o'yinlar

⁴“Temurnoma” S.Toshkandiy. T.: Cho'lpon – 1991 44 – bet.

bolani yoshlikdan chiniqtirardi ,xaf-xatardan qo'rqmaydigan jasur yigit qilib tarbiyalaydi. Muhimi, bolada harbiy malaka hosil bo'ladi. Navqiron yoshga yetgan Amir Temur sal kam bir yarim asrlik mo'g'illar istibdodiga chek qo'yish, feodal tarqoqlik natijasida Chig'atoy ulusida hukm surayotgan o'zaro nizolar vaurushlarga barham berish,tashqi va ichki zug'im tufayli tinkasi qurigan xalq ommasiga madad qo'lini cho'zish xarob bolgan shahar va qishloqlarni qayta obod qilish,ulusni tashaqridan bo'ladigan bosqinlarni chek qo'yish uchun birdan bir yo'l hokimiyatni qo'lga kiritish ekanligini yaxshi anglab yetadi.Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bila ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliy himmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib uning dong'I butun Qashqadaryo vohasi xususan, Kesh viloyatiga yoyilgan.

Amir Temur bilan yuzma-yuz o'tirib suhbatlashishga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning takidlashicha Amir Temur turk, arab ,fors xalqlari tarixini chuqur o'rgangan, diniy dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha o'zlashtira olgan zot deb tariff berib o'tgan.Ibn Arabshoh esa aksinchaa,"Amir Temur haqida o'qshni,yozishni bilmaydi kabi salbiy fikrlarni ham bildirib o'tgan". Bundan ko'rinib turibdiki Ibn Arabshoh bu fikrni alamzada hissiyotga berilgan holda yozgan bo'lishi mumkun. Shunday qilib Amir Temur o'z zamonasining o'qimishli va o'quvli hukmdorlaridan bo'lib yetishadi. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati 14-asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. 14-asr ning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning "Habib ussiyar" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo'jandda amir Boyazid jaloir, Balxda Uljoy Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisori Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukdorlikga ajralib ular o'tasida nizo kuchayib ketadi,va qonli urushlarga aylangan edi. Siyosiy tarqoqlik o'zaro urush va janjal iqtisodiy tanglikga sabab bo'lib, mamlakat aholisini ayniqsa, dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgandi. Mamlakat yana chetdan kelgan dushman oyog'I ostida qolgan o'sha og'ir kunlardaxalqning nonini yeb, tuzini ichgan amirlar jonini saqlash uchun qochib qoldilar lekin Amir Temur ularning og'ir yukini o'z yelkasiga oldi.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi — Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jete xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxo'ja 1360 — 61 va 1365 y. larda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Mo'g'ul xonlarining

boskinchilik yurishlari va zulmiga karshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar. Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo'g'ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360 yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asn etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noiloqliqdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo'lib, bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talontarojining oddini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. O'sha og'ir damlarda mo'g'illarning asosiy kuchlari Movaraunnaxrga ichkarilamasdan turib ularni to'tatish va el-yurtini talon-taroj hamda taxqirlashlardan asrab qolishni o'ziga niyat qilib oldi. Qisqa bir fursat ichida Amir Temur Tug'luq Temurxonning ishonchini qozondi. Xon unga ota yurti bo'lmish Keshni, to Jayxun bo'yigacha bo'lgan yerlarni ham qo'shib berdi va uning maslahati bilan ish tutadigan bo'lib qoldi. Amir Temur bir kuni mo'g'illar amir Bekchik, Xojibek, va Ulug' To'qtemur boshchiligida Qarshi va G'uzor atrofidagi qishloqlarni talon-taroj qilganini xonga arz qilganidan xon amirlarni qttiqla jazolaydi.

Tug'luq Temurxon Mo'g'ilistondagi nosozlik va ayrim beklarning isyoni tufayli Movaraunnaxrni o'g'li Ilyosxo'jaxonga topshirib 1360-yilning kuzida Mo'g'ilistonga qaytib ketadi. Amir Temurning Ilyosxo'jaxon bilan murosasi kelishmay qoladi. Xon uni katta amirlikdan chetlatib, sipohiygir yani, qo'shin to'plovchi etib tayinlaydi. Bosh amirliklavozimiga o'zining eski sodiq amiri Bekchikni tayin qildi. Keyinchalik xon va amir Bekchik chorasini topib uni yo'qotish payiga tushdilar. Amir Temur buni keyinchalik bunday eslaydi. "Ilyosxo'jaxon va amir Bekchik tig'g'luq Temurxonga xat yozib, Temur bizga qarshi isyon tig'ini ko'tardi deydi. Xon bu yolg'on gaplarni rost hisoblab meni yo'qotish haqida yorliq yubordi. Bu yorliq murning qo'limga tushib qoldi undan o'limga mahkum etilganimni bilib oldim".deb xotirlab o'tgan. Shundan keyin Amir Temur fursat topib Ilyosxo'jaxonning o'rdasini tark etdi; Xivaning janubida, Urganjiy dashtida Amir Temur Tug'luq Temurning yana bir raqibi — qaynog'asi amir Husayn bilan uchrashadi. Amir Temur mo'g'ullar bilan kurashish maqsadida u bilan birlashib, ikkovlon kuch to'plashga kirishadi. Dastlab ular Tug'luq Temurxonning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi To'qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar. 1362-yil Amir Husayn bila qo'shildi va tevarak atrofda yurgan bazi amirlarni ham to'plab, mo'g'illarga qarshi kurashni davom ettirishga qaror qildi. So'ngra 1362 yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Amir Temur o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlandi.

1362-yil Amir Husayn bila qo'shildi va tevarak atrofda yurgan bazi amirlarni ham to'plab, mo'g'illarga qarshi kurashni davom ettirishga qaror qildi.

Shu maqsadda ular, Amir Temur bilan Amir Husayn Balxdan kuch to'play boshladilar ko'p o'tmay mo'g'illar Amudaryoning so'l sohilida paydo bo'ldilar. Ittifoqchilar Amir Temur va Amir Husayn, Abusaid va Mingli Bug'a bosh bo'lgan uch ming kishilik mo'g'il qo'shinini shu yerda Balxda tor-mor keltirdilar. O'sha kungi g'alabadan so'ng boshqa amirlar ham ular bilan yaqinlashishga harakat qiladilar. Bu ularning mo'g'illar ustidan qozongan birinchi katta g'alaba bo'ldi. Amir Temur va Amir Husaynning bu g'alabasi tez orada Movaraunnaxrga ham yoyildi. Tog'i – toshlarda, cho'llarda yashirinib yurgan amirlar harakatga keldilar.⁵ Sulaymon Barlos, Amir Muso, Amir Temur bilan Husaynni izlab Termiz atrofiga keldilar". Amir Temur bilan Amir Husayn ular bilan qo'shilish choralarini ko'rgandan 1362-yildayoq mamlakatni mo'g'illardan ozod qilgan bo'lar edi. Lekin Amir Husayn tamoman o'zgarib qoldi Amir Temurning "zudlik bilan Amudaryodan o'tib amirlarni to'playlik "degan taklifiga u "biz Qubbatul-Islom Balxda qolishni ixtiyor qildik" deb javob qildi. Amir Temur bu mutakabbir, shuhratparast odamni yaxshi bilardi. Shuning uchun unga bir nima deb o'tirmadi. Kurashni hozircha bir muddat o'zi davom ettirishga harakat qildi.

O'sh yilning kuzida daryoning narigi sohiliga o'tib mo'g'illarning Hisor viloyatida turgan katta qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi. 1363-yil Amir Temur Temur Qopug'dan o'tib, yana bir ikki yerda mo'g'illarni yengdi. O'sha 1363-yili xatto ota yurti Keshni ham qo'lga kiritdi; shaharning buzilib ketgan yerlarini tuzatish va tamirlashga kirishdi. So'ng mamlakatdagi vaziyatni bilish uchun Qarshi Samarqand Buxoro va Xo'jandag Xabargirlarini yubordi. Oradan bir ikki kun o'tib xabargirlar Ilyosxo'jaxon katta qo'shin bilan Qarshidan o'tib, Kesh tomon krlyapdi dega xabar olib kelishdi. Mo'g'illar Keshga yaqinlashguday bo'lsa Amir Temur ozgina odami bilan kurashishga qodir emas edi. Shuning uchun ham u odamlarini olib, Kesh atrofidagi tog'i-toshlarga chiqib ketmoqchi bo'ldi. Lekin, ertasi kuni Samarqand taraflardan Kelgan bir savdogar "Tug'luq Temurxon vafot etibdi va Ulug' To'qtemur bilan amir Homid Ilyosxo'jaxonni olib Mo'g'ilistonga jo'nab ketibdurlar, mo'g'il askari esa Toshariqdan orqasiga qaytib ketibdur" degan xabar olib keldi. Temur buni Ollohning unga va Kesh xalqiga ko'rsatgan inoyati deb bildi. Bunday vaziyatdan foydalangan Amir Temur yigitlari bilan G'uzorni ham ozod qildilar. Shundan so'ng yigitlariga ikki kundam berib, keyin jigdalik qalasiga borib unilashkargohga aylantirdi. Chunki bu qalaning bir tarafi Temiz ikkinchi tarafi Samarqandga olib boradigan yo'lning ustida joylashgan edi. Oradan bir hafta o'tib Keshga kelishda qoldirga Temur Qopug'dagi yigitlari ham yetib keldi. Sher Bahrom boshchiligidagi Bolijuvonga yuborilgan askari ha jigdalikga yetib keldi. Muhimi oradan bir qancha vaqtdan so'ng ikki ming askar bilan amir Husayn ham Balxdan kelib, Amir Temurga qo'shildi. Keyin ular qo'shini bilan G'uzorga keldilar. Yigitlari bo'lajak janglarga tayyorgarlik ko'rdilar. Lekin uchkundan song mo'g'il qo'shini amir Qoraxo'ja va amir Homid boshchiligidagi qo'shin Guzorga yaqinlashib

⁵ "Amir Temur darslari" B. Ahmedov. T. Sharq nashriyoti. 2001. Y 35-bet.

qolganligi haqida habar olindi. Va ikki o'rtada qattiq urish bo'ldi. Ikkala taraf ham katta talofat ko'rdi. Lekin, alaba baribir Temur bilan Amir Husayn tarafda bo'ldi. Amir Temur bilan Amir Husayn mo'g'illarga Obi Yomda ham katta zarba berdilar, mo'g'illarning qolgan qutgan qoshinlar Xo'jand tarafga qochdilar. . Nihoyat, 1364 y. oxirida ular mo'g'ul qo'shinlarini [Movarounnahr](#) hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladilar.

Lekin, xurriyat nashidasi uzoqqa cho'zilmadi. Ilyosxo'jaxon 1364-yil mobaynida qattiq harakat qilib katta qo'shin to'pladi. Va 1365- yilning bahorida yana Movaraunnaxr ustiga bostirib kirdi. Amir Temur bu paytda Temur Qopug'ning shimol taraflardagi o'lkalarda, Amir Husay esa uning janubidagi va Amudaryoning narigi sohilida joylashgan yerlarda o'z mavqeini anch mustahkamlab olgan edilar.

Qish tugab, baxor o'z jamolidan olamga go'zallik bag'ishlagan bir paytda Mo'g'illarning bir yerga to'planganligi haqida xabar olindi. Amir Temur Amir Husaynga chopar yuborib, uni yuz bergan voqeadan ogoh qildi. Amir Husayn Amir Temurga lashkarning ilg'or qismini tuzib, ilg'orlab borishni buyurdi. "Amir Temur, Po'lat Bug'a, Zinda Chashm va boshqa Lashkar bilan yo'lga chiqdi va Oqar mavzesiga kelib tushdi. Amir Husayn ham lashkarini to'plab kelib, Sirdaryodan o'tdi. Dushman lashkarining ilg'or qismi yaqinlashib keldi. Amir Temur Chinoz bilan Toshkent o'rtasiga yetib keldi. Keyinroq Amir Husayn ham yetib keldi. Dushman Bodom suvi yaqinini egalladi."⁶ Ikki o'rtadagi urush Chinoz atrofidagi katta maydonlikda 1365-yil 22 may kuni tong da boshlandi. Aksiga olib, bir kun avval choshgohda osmonni qora bulut qoplab, jala quya boshladi. Yomg'ir ertasiga ham to'xtamadi. Jang maydoni botqoqlikga aylanib, otlar tizzasigacha loyga botib qoladigan darajaga yetdi. Shunga qaramay, Amir Temurning yigitlari jon - olib jonberib urushdilar". Amir temurning qo'shini mo'g'illarning Shamg'un no'yon bosh bolib turgan barong'orini ulotirib tashladi. Markazda turgan ilyisxo'jaxon ham chekinishga majbur bo'ldi. Afsuski, galaba yaqin bo'lib turgan bir paytda amir Husayn sustkashlik qildi. Qo'shinni turgan joyida to'xtatib, xiyol o'tmasdan jang maydoning chetiga chiqib oldi. Amir Temurning ko'p bor, xitoblari va chaqiriqlarini javobsiz qoldirdi. Amir Temurning so'nggi chopariga esa "Yog'iy bilan chopishib olishga tayyorman, lekin botqoqqa botib o'lishni istamayman" deb javob qaytardi. Keyin qo'shinini olib Sirdaryoning narigi tarafiga o'tib, janubiga qarab ketdi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida yozilishicha Amir Husayn shu qadar qo'rqib ketgan ediki, u Soli saroyda ham to'xtamay, Amudaryoning narigi sohiliga qochib o'tdi. Va tog' oraliq'ida joylashgan Shabartuga yani Hindikushda joylashgan manzilgohga borib yashirindi. Amir Temurning esa o'sha paytda dastlabki chekininshi Samarqandga bo'ldi. Lekin u yerda jjon saqlashning imkoni yo'q edi. Negaki, shaxar Chingizxon bosqinidan buyon yarim vayrona bo'lib yotgan edi.

⁶ "Amir Temur darslari" B.Ahmedov. "Sharq" nashriyoti. 36 – 37 bet.

Uning na bbiroir devoir na biror bbiir butun istehkomi bor edi. Shu sababda Amir Temur qolgan qutgan askari bilan to'g'ri Keshga bordi. Ammo u yerda ham qololmadi. U ham Amudaryoning narigi sohiliga o'tib ketdi. Ilyosxo'jaxon boshliq mo'g'illar mamlakatning ichkarisiga bostirib kirishda davom etdilar. Ayni paytda esa Samarqandda esa Sarbadorlar harakati boshlangan edi. Shahar yana mo'g'il bosqini xafi ostida, bir umir xalqning nonini yeb, otini mingan hokimlar ems, balki "Sarbbadorlar" deb atalgan xalq ommasi xalqning joniga oro kirdi. Mo'g'illar Samarqandga yaqinlashib kelyotgandan xabardor bo'lgan xalq ommasi yig'ilishdi. Samarqand madrasalaridan birining mudarrisi Mavlonzoda, Naddof yani paxta tituvchi Abubakr Kalaviy bilan mergan yigit Xurdaki Buxoriylar xalq ommasiga raxnamolik qildilar. Sarbadorlar yetakchilari xaf – xatar kuchaymasdan uning oldini oldilar. Ular darxol xalq ommasini masjidul-jomiya yig'ib, yuz bergan ahvolni o'rta tashladilar. O'shanda xalq yakdillik bilan Mavlonzodani o'zlariga raxnamo etib sayladilar. Abubakr Kalaviy bilan Xurdaki Buxoriylar uning yordamchilari etib tayinlandi. Shundan keyin sarbadorlar harakati yetakchilari shahar mudofasini tashkil etish va dushmani tor-mor etish rejasini tuzib oldilar. Qurol ko'tarishga qodir bo'lgan barcha erkaklarni laskarlikga safarbar qildilar. Ertasi kuni Mavlonzoda va uning yordamchilari muhim bir qarorni- shaharda hokimiyat shu kundan etiboran sarbadorlar qo'liga o'tganligi, boju-xiroj va boshqa soliqlarning miqdori birmuncha kamaytirilgani, Islom joriy etilganiga 700-yil kechganiga qaramay hamon xalqdan undirilib kelinayotgan jizya solig'i bekor qilinganligi va qo'l mehnati birmuncha yenggillashtirilganligi haqidagi qarorni elon qildilar.

Shunday qilib, Samarqandda hokimiyat xalq qo'liga otdi. Hukumat ishlarini jamoa bo'lib ado etdilar. O'sha kuni choshgohga yaqin Ilyosxo'jaxon va mo'g'illar shaharning shohizinda shoh ko'chasida paydo boldilar. Ular shaharni lashkardan holi hisoblab, bo'm-bo'sh deb bamaylixotir kela edilar. Koch boshida, uning ikki tarafiga qo'yilgan pistirmadagilar ularni sezdirmay o'tkazib yubordilar. Lekin, mo'g'illar ko'chaning uyer bu yeriga qo'yilgan to'siqlarga duch keldilar. Ana shunday tosiqlarning biri Chorsuga yaqin joyga qo'yilgan edi. Mo'g'illar to'siqqa o't qo'yib yoqib yubormoqchi bo'ldilar. Shu payt kochaning ikki yoniga qo'yilgan pistirmalardan yog'dirilgan o'q yomg'iriga duch kelib, ularning ko'pchiligi otlardan qulab yer tishladilar. Shundan keyin mo'g'illar manjaniqlarni ishga soldilar va shaharni bambardimon qilishga kirishdilar. Ko'p uy-joylar, masjidi – madrasalar vayron qilindi. Tinch aholidan ko'p odam o'ldirildi. Baribir, Samarqand va uning qahramon xalqi taslim bo'lmadi. Aksincha kattayu-kichik, jon jahdi bilan kurashni davom ettiradilar. Urush brogan sari qizib bordi. Bir so'z bilan aytganda bosqinchlarning Samarqand va uning xalqini tiz cho'tirish uchun qilgan barcha urinishlari behuda ketdi. Buning ustiga ular xalqning qarg'ishiga uchrab, otlari va boshqa chorvalariga o'lat kasali tegib, ko'p otlaridan ajraldilar. Sharafiddin Ali Yazdiyning keltirgan malumotlariga qaraganda, o'shanda to'rt otliq mo'g'ilning faqat

bittasida ot qoldi xalos, deb keltirib o'tadi. Shundan so'ng mo'g'illar qolgan -qutgan lashkarini olib, mamlakatimizdan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Sarbadorlar ko'p sonli va yaxshi qurollangan dushman ustidan g'alaba qildilar.

Lekin, Samarqand sarbadorlarining hukmronligi bir yildan nariga o'tmadi. Kelasi yili 1366- yil bahorda Amir Temur bilan Amir Husayn ham askarlari bilan Samarqand atrofida paydo bo'ldilar. Ular Konigil mavzesida joylashdilar. Ertasi kuni sarbadorlarning yetakchilari amirlarni qutlash uchun Konigilga kelganlarida Amir Husayn xiyonatkorona ish tutdi. Uning qarori bilan Abubakr Kalaviy va Xurdaki Buxoriylarni qatl ettirdi. Kech bo'lsada Amir Temur bu xabarni eshitishi bilan Mavlonzodaning xayotini saqlab qoldi. Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasidagi munosabat shu tariqa buzilib bordi. Amir Husayn Balxni mustahkam qo'rg'onga ayiantirganidan so'ng ham Amir Temurni yo'q qilishga harakat qildi. Balx viloyati Qunduz va Badaxshondan ashkar to'pladi. Amir Husayn shunda firib berib o'z elchilarini amir temurning huzuriga yuborganligini "Temur tuziklarida" shunday tariflaydi. U o'rtamizdagi rishtalarimizni qayta tiklashga vada beradi. Xatto u ⁷ "Quron – xudoning kitobi meni ursin " qasam ichadi. Uni musulmon deb bilganim uchun so'zlariga ishonchim deb aytib o'tadi. Amir Temurni Chakchak darada uchrashishni taklif qiladi. Amir Temur bu uchrashuv aslida, qo'yilgan tuzoq ekanligini yaxshi bilar edi. Lekin, ehtiyot chorasini ko'rib bordi-200 ta yigitini o'zi bila birga olib bordi. Amir Husayn esa Chakchak daraga ming nafar sipohiy bilan keldi. Amir Temur bu uchrashuv haqida shunday eslaydi: "Ozim bormadim, Lekin Amir Husaynga ushbu bayt mazmunida xat yubordim.

__Yorga yetgur sabo, kim makr qilmishdir manga

__Qildi esa kimga makrin qaytadir bir kun angga.

Bu xatim Amir Husaynga borib yetgach ko'p xijolat bo'lib, uyaldi v mendan uzur so'radi. Men ikkinchi bor uning so'ziga ishonmadim. Shundan keyin amir Husayn raqibini dog'da qoldirmoqchi bo'lib, Amudaryoning asosiy kechuvlariga katta qo'shin yig'a boshladi. Lekin, Amir Temur uning bu rejasini chippakga chiqardi. 1370-yilning 13- martida katta amirlari Joku Barlos, Sayfiddin Barlos va Abbos Bahodirlarni huzuriga chaqirib, yopiq kengash o'tkazdi; shu yerning o'zida Balx ustiga Amir Husaynga qarshi yurish boshlash va dushmanni Balx trofida bosishga qaror qilindi. Xullas, Balx ustiga yurish 1370-yil 15-mart kuni erta tongda boshlandi. Termizga yaqinlashganlarida, undan uch farsax (18--- 21) km berida joylashgan Biyo Qishlog'ida, Andxud Saidzodalaridan Said Baraka Amir Temurning oldiga chiqib va uning qo'liga, hammaning oldida nog'ora bilan bayroq tutqazdilar. Bayroq bilan nog'ara musulmonlar odatiga ko'ra, toj-taxt ramzi bo'lib, uni oliy martabali ruhoniyning qo'lidan olish tez orada uning toj-taxt va saltanat egasi bo'lishligiga ishora edi.

⁷ "Temur tuziklari". Yoshlar nashriyoti. Toshkent. 2018-yil. 59-bet.

Qo'shin Chag'anyon viloyatidagi kechuvlardan biri Chag'ona sari yo'l oldilar, Temur va uning safdoshlari shu yerda lashkarni va qurol – aslaha hamda oziq – ovqat zaxirasini to'ldirib oldilar. Shu yerda Joku Barlosning say-harakati bilan Chag'anyon va Xuttalondan ancha lashkar yig'ldi. Ayvoch kechuvi oldida esa Bayon Sulduzning o'g'li Shayx Muhammad Qarqara ko'p yigitlari bilan kaelib Temurga qo'shildi. Bu kechuvdan o'tish xavotirsiz tashvishsiz o'tdi. Xulumga yetganlarida Xazora qavmi kelib, tobrlik bildiradi. Amir Husaynning Qunduzdagi noibi O'joy va Badaxshon voliysi Shox Mhammad ham Temurga tobelik bildirib , qo'shiladilar. Chig'atiy ulisining ko'pgina amirlari Amir Temur tarfiga shu tariqa o'tib ketadilar. Amir Husaynga qo'shiluvchilar esa deyarlik bo'lmadi, aksincha, uning tarafdoshlari asta – sekin uni tashlab ketadilar. Temur bilan hal qiliuvhi jangda Hirot taxtiga Malik G'yosiddin Pirali va Bodxiz hokimi Shamsiddin Muhammadga qattiq ishonar edi. Lekin ular og'ir bir paytda ham yordam bermadi. Yangidan kelib qo'shilganlar orasida Shibirg'on hokimi Muhammadxo'ja Apirdining o'g'li Zinda Chashm ham bore di. Sharafiddin Ali Yazdiyning so'zlari bilan aytganda”⁸Amir Temurning bayrog'I ostida shu qadar ko'p lashkar to'langan ediki, uning savlatidan tog'i-toshlar va dasht-u bbiyobonlar larzaga keldi.” Deb tariff berib o'tadi. 1370-yil 5-aprel kuni Balxning Hinduvon deb atalmish qal'a Amir Temur tarafidan qurshab olindi. Balxning tashqari shaxri Hinduvon uchun jang shiddatli kechdi. Jang ikki kun davom etdi. Ikkala taraf ham katta talofat ko'rdi. Og'ir janglarning birida Temurning o'n olti yoshga kirgan o'g'li Umarshayx Mirzo oyog'idan yarador bo'ldi. Jahongir Mirzo va uning bir guruh jasur yigitlari darvozani yoqib yuborishga muaffaq bo'ldilar.

Oxir – oqibat qamaldagilarning ahvoli og'irlashdi. Ortiqcha qarshilik ko'satish befoyda ekanligini Amir Husayn Husan ham tushundi. Amir Husaynni qo'lga olib , Amir Temurning o'rdasiga keltirdilar. Amir Husayn 1370-yil 12- aprel kuni qatl etildi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur Movarounnahrning chingiziylardan bo'lgan hukmdori Qozonxonning qizi Saroymulk xonimni o'z nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur "ko'ragon", ya'ni "xonning kuyovi" unvonini oldi.

Va shundan keyin o'tkazilgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olindi. U Movaraunnaxrning Amiri deb elon qilindi. Shundan so'ng, Markazlashgan davlatning tashkil etilishi, davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlab ko'pdan beri davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikga barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror topdirish maqsadida Amir Temmur 1370-yilning iyul oyida Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Qurultoyda markaziy davlat tizimini shakillantirish va qo'shin tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand mammlakat poytaxti deb elon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal'alar hamda saroylar barpo etishga kirishiladi. Bu imoratlar Samarqand mo'g'illar

⁸ "Temurnoma" S.Toshkandiy; T. "Cho'lpon": 1997-yil. 113- bet.

tomonidan vayron etilganidan keyin 150 yil o'tgach, birinchi marta bunyod etilgan umummamlakat miqyosidagi inshootlar edi. Buning ustiga Chingizxon bosqinidan beri nafaqat Movaraunnaxr balki, mo'g'illarning oyog'I tekkan barcha mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli og'ir, siyosiy vaziyat yomon edi. Amir temur o'tkir siyosatchi odam bo'lganligi uchun bu vaziyatni to'g'ri baholadi, unga alohida etibor berdi. Ayniqasa, mamlakatning tevarak atrofidagi vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarini ko'rdi. Amir Temur o'sha davrdagi, boshboshdoqliklarga barham berish uchun 1371-1404-yillar orasida Mo'g'ilistini, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya), Hindiston, Gurjiston, Armaniston va Kavkazorti o'lkalariga harbiy yurishlar qildi. Amir Temurning faoliyati haqida gap ketganda shuni takidlash joizki, Amir Temur bir umir otdan tushmay urushlar olib bordi. Juda ko'p mamlakatlarni istilo qildi. Lekin, ularning birontasini ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olmadi, aksincha, avvalgi hokimlari yoki ularning avlodlariga topshirib qaytdi. Bu xol XIV asrning 80-yillari boshigacha davom etdi. Lekin mahalliy hukmdorlar: Muzaffariylar ham Jaloyirlar ham Qoraqayinlilar ham Mozandaron va Jurjon saidlari ham tinib tinchimadilar. Tez-tez isyon ko'tarib, mustaqillik elon qilaverdilar. Shundan keyin oxiri bo'lmagach u yerlarga hokim qilib o'z o'g'illari va nabiralarini yubordi. Masalan, Gaznaga Pirmuhammad ibn Jahongirni hokim qildi. Xurosonga – Shohruh Mirzo, Sherozga—Pirmuhammad ibn Umarshayxni, Mironshox—Sultoniya, Garbiy Eron va Ozarbayjonga hokim etib yuborildi. Xullas, Amir Temur o'z davlatining manfaati, tinchligi va xafsizligi uchun kurashdi dushmanlarning fitnasini oldindan bilib, uning chora-tadbirlarini ko'rdi. “Temur tuziklari”da keltirilishicha ⁹“Amir Temur davlatni boshqarishda 12 ta toifa vakillariga tayanib boshqarar edim deydi”.

1.Sayyidlar, mashoix va ulamo fozil kishilar; 2.Ishbilarmon, donishmand odamlar; 3.Xudojo'y,tarkidunyo qilgan kishilar; 4.No'yonlar,amirlar,mingboshilar-yani harbiy kishilar; 5.Sipohiy va rayiyat; 6. Maxsus ishonchli kishilar; 7.Vazirlar,sarkotiblar; 8.Hakimlar,tabiblar,munajjimlar,muhandislar; 9.tafsir va xadis olimlari; 10. Axli hunar va san'atchilar; 11.So'fiylar; 12. Savdogar va sayyohlar shular jumlasidandir. “Temur tuziklari” da Amir Temur saltanat ishlarini bunday tariflaydi. Pirim Zayniddin Taybodiymenga yozishlar kim “Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgil, yani ; 1.Kengash; 2.Mashvarat-u maslahat; 3.Qatiy qaror,tadbirkorlikva hushyorlik; 4.Ehtiyotkorlik” deb aytgan edilar deb xotirlaydilar.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi.Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyatda katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi.¹⁰”Amir Temurning asosiy

⁹ “Temur tuziklari” Yoshlar nashriyoti. Toshkent; 2018-yil. 8-9- betlar.

¹⁰ I.A .Karimov. Toshkent; 1996-yil nutqida..

tarixiy xizmati shundan iboratki, aynan uning hukmronligi davrida Yevropa va Osiyo qitalari ilk bor o'zlarining bir geosiyosiy maydonda yashayotganliklarini his etdilar" deb takidlaydilar.

1.2. Amir Temur qo'shining tarkibi va tuzilishi.

Buyuk lashkarboshi va tashkilotchi sifatida Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladiga joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ldi.

Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlari, xususan, Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib boorish amallarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Amir Temur armiyasida muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi: qoshin son jihatidan aniq va puxta tashkil qilingan, uning janggovor tartibi-yasol jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan. Aynan bir turdagi qurol yarog' aslaha-anjom bilan taminlangan. Qismlar bir-biridan kiyim boshi tutgan bayrog'I yoki tug'I orqali ham farqlangan bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan. Dushman mudofasiniturli usullar yordamida barbod qilish, g'nim tomoninig yirik va mustahkm mudofa inshootlariga ega bo'lgan shaharlariga qo'qqisdan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning boshliqlarini, ayniqsa lashkarboshilarni hibsga olish qal'a hamda qo'rg'onlarni uzoq muddat davomida muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar tuman va viloyatlarini birin ketin fath etish dushmanni batamom yakson qilaguncha taqib qilish, fath bo'lgan hududlarni boshqarish uchun o'zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategic maqsadlarni ko'zlab ish yuritish Amir Temurga butun faoliyati davomida ko'plab zafarlar olib kelgan.

Amir Temur davrida davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra harbiy –siyosiy tartiblarga asoslangan edi. ¹¹“Sohibqiron Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga malum darajada yaqin bo'lsada, bir necha jihatlari bilan farqlanadi”.

1. Chingiziylar qo'shini yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chiqariladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgani holda, Temur armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.
2. Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi.

¹¹ “Amir Temurning harbiy mahorati”. X. Dadaboev “Yozuvchi” nashriyoti. T: 1996-yil 8 – 9 – bet.

Temur qo'shiniga oliy bosh qo'mondondan ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan.

3.

Temur qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni hisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo'lmagan.

4.

Amir Temur Sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o'tochar qurol, ya'ni to'p-ra'dni olib kirdi.

5.

Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunlari ko'rsatgan.³

6.

Sohibqiron tog'li hududlard jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi.

7.

Temur jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yeti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi.

.Amir Temur qoshini tarkibini Movaraunnaxr,Dashti Qipchoq, Xuroson,Eron,Badaxshon, Mo'g'iliston, Xorazm,Mozandaron,Jete singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi.Ibn Arabshohning ¹²“Amir Temur tarixi asarida” qoshin tarkibi haqida bunday deydi. Temur askarlari ichida budparast turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar kohinlar sehrgarlar zolimlar va munxirlar ham bor” deb sanabo'tadi. Taktika jihatdan Amir Temur armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi qo'shinning yasoli undan oldingi davrdagi Qoraxoniylar G'aznaviylar, Saljuqiylar Chingiziylar qo'shini janggovor tartibidan farqli o'laroq yetti qism- qo'lga ajratilgan.Razvetka alo darajada yo'lga qo'yilgan,qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan.Ularni jang paytida opirativ boshqarishga alohida katta eetibor berilgan.¹³” Amir Temur qo'shini asosan o'nlik,yuzlik,minglik,va tumanga bo'lib boshqarilgan”. O'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshliq-O'nboshi.Yuz kishilik harbiy qism boshlig'i-Yuzboshi. Ming kishilik qo'shin boshlig'i-Mingboshi.O'n ming kishilik qo'shin qo'mondoni-Tumanboshi yoki No'yon deb atalgan.

¹² “Amir Temur tarixi” Ibn Arabshoh “mehnat” nashriyoti. Toshkent: 1992-yil 96- bet.

¹³ “Temur tuziklari”. “yoshlar”. Nashriyoti.T . 2016-yil 9-bet.

O'n ming kishilik qo'shinga Amir Temur o'g'illari, nabiralari, va martabali beklar boshchilik qilgan. Amir Temur o'nlik, yuzlik, minglik, tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga bevosita o'zi rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlanganligi va o'z joyiga qo'yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli tasir ko'rsatgan. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri- qoshin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, G'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism- Qonbulning joriy etilishidir.

Bunday mutlaqo yangi harbiy qism tarixda Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Buyuk Fridrix, Chingizxon kabi dongdor sarkardalar qo'shinida bo'lmagan. Faqat XIX asrning atoqli lashkarboshchisi Napoleon Bonapart armiyasining janggovor tarribida qoshin qanotlarini himoyalovchi qism mavjudligini kuzatish mumkin. Harbiy mutahasislarning fikricha, Napoleon sharq mamlakatlari tarixini chuqur o'rganganligidan dalolat beradi.

Amir Temur qo'shini tarkibi va tuzilishi: Tarixiy manbaalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, otliq askarlar Amir Temur armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlariga bo'lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug'ullanganlar, o'ta zarur chog'dagina dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo'lgan.

Amir Temur qo'shini piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi. Lekin, piyodalar ham uzoq cho'l safarlarida otlar bilan taminlanar, otliq askarlarning katta qismi esa piyoda tartibda jang qilishga ham o'rgatilgan edi. Ular kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo'lgandagina otdan tushib, piyoda jangchilarga aylanardilar. Biroq ular otda piyoda harakat qilishdan ko'ra yaxshiroq harakat qilganlari, shubhasiz, chunki ular chavandozlik mahoratini yaxshi o'zlashtirganlar. Otliq askarlaroddiy va saralangan jangchilarga bo'linib, yengil va og'ir otliq qo'shinini tashkil etar edi. Bundan tashqari Amir Temurning xos navkarlari ham bore di.

Amir Temur lashkarlarida asosiy qo'shin turlaridan tashqari yana quyidagilar mavjud: **1. Pontonchilar-** (ko'chma ko'priklar qurish ishlari bilan shug'ullanuvchilar) va kemachilar (ular, asosan, Amudaryo va Sirdaryoda kemachilik bilan shug'illanuvchi kishilardan tanlab olinib kemalar va ko'priklar qurish uchun ishlatiladi); **2. Naftondozlar-** (Gregoryan yoki yunon olovini otuvchilar); **3. Qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar bilan ishlashni biladigan jangchilar.** Amir Temur boshchiligida qamal qilingan ko'plab qal'alarining grigoryan olovlarni otish va uloqtiruvchi qurollardan mohirona foydalanishi natijasida qo'lga kiritilganligi qo'shinning shu turi juda katta malakaga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Qamal jarayonlari jarayonlari Amir Temur va yunonlar va rimliklar qal'alarini ishg'ol qilish uchun qo'llagan usullarini yaxshi

bilganini ko'rsatadi. Boyazidga qarshi bo'lgan jangda Amir Temur grigoryan olovini otivchi moslamalarni fillar ustiga o'rnatib jangga kiritdi.; **4. Amir Temur tik qiyaliklarga chiqa oladigann, tog'li yerlarda bo'ladigan janglarga ko'nikgan tog' aholisidan tashkil topgan mahsus piyoda qismga ega edi.** Bu qism jangchilari Amir Temurga daralar, tog' yo'llari va tog'larda joylashgan qal'alarni qo'lga kiritishda katta yordam berdi.

Qo'shin qurollanishi. Amir Temur urush boshlashdan avval oddiy otliq askarlar yoki yengil otliqlar kamon, sadoq (o'q-yoylar) bilan qilich, arra, bigiz, igna, taroq arqon, bolta o'q uchun o'nta poynak, qop, mesh (daryodan o'tish hamda suv olib yurish uchun ishlatiladigan charmdan ishlangan qop va ikkita otga ega bo'lishlarini talab qilinar edi. Bundan tashqari har o'n sakkiz kishi kiygizdan ishlangan o'tov olishlari shart edi. Saralangan jangchilar yoki og'ir otliqlar dubilg'a, qalqon, qilich, kamon, va o'q-yoylar bilan qurollanar edilar. Ularning har biri ikkita ot va har besh kishi bitta o'tov olishlari shart edi (besh kishiga bitta o'tov olishining sababi – saralangan jangchilarning qurol-anjomlar ko'p joyni egallar hamda ular maxsus xizmatkorlarga ega edilar). Shuningdek, gurzi oybolta shamshir bilan qurollangan maxsus jangchilar bo'linmasi ham mavjud bo'lib, otlari ustiga yo'lbars terisidan yopinchiq yopilardi. Bu jangchilar Amir Temurning xos navkarlari bo'lgan. Jangchilar qilichi chap yonlarida, ikki tig'li shamshirni esa o'ng yonlarida osib yurishlari lozim edi. Har bir o'nboshi sovut, qilich, kamon va o'q-yoy bilan qurollangan bo'lib, chodir va beshta otga ega bo'lishlari kerak edi. Yuzboshilarda o'nta ot, o'z otovlari, qurollardan esa qilich, kamon va o'q-yoy, gurzi, cho'qmor va sovut bo'lishi majburiy tartib edi.

Mingboshilar o'z o'tovlarida soyabon va bir qancha ortiq qurol-yarog'lar – sovut dubulga, nayza, qalqon, qilich, sadoq va o'q-yoylar saqlashlari kerak edi. Birinchi darajali amirlar ikkita o'tovga ega bo'lib, birinchisi, oddiy ikki soyabonli, ikkinchisi esa zarrin iplardan tikilib bezatilgan bo'lishi lozim edi (bu o'tov boshliqlarini qabul qilish va ziyofatlar uchun mo'jallangan). Ular oddiy jangchilarni tminlashga ham yetadigan juda ko'p ortiqcha qurol – yarog' ham saqlar edi. Ikkinchi darajadan o'n ikkinchi darajagacha yoki bosh qo'mondongacha bo'lgan oliy darajadagi amirlar ko'proq qurol-yarog' va ot aravalarga ega bo'lishlari zarur edi.

Birinchi Amir o'zi bilan 110 ta ot, ikkinchisi, 120 ta, uchinchisi, 130 ta, va hakazo bosh qo'mondon esa 300 dan kam bo'lgan ot olib yurishlari shart edi.

Piyoda jangchi shamshir, kamon va o'qlarga ega bo'lib jang oldidan o'qlar soni maxsus buyruqqa binoan ko'paytirilishi mumkin edi.¹⁴ "To'qtamishga qarshi bo'lgan yurishda har bir jangchiga 30 tadan o'q olish buyurilgan edi". Amir Temur

¹⁴ "Amir Temur tarixi" Ibn Arabshoh. "Mehnat" nashriyoti. T. 1992-yil 108- bet.

yurish boshlashdan avval yoki jang oldidan qo'shinning ahvoli, qanday jihozlangani umuman, holatini ko'rikdan o'tkazishga nihoyatda jiddiy amal qilardi.

Agar dushman qo'shini soni 12 mingdan oshmasa Amir Temur ularga qarshi tegishli o'nliklar, yuzliklar va mingliklarga ega bo'lgan 12 ming otliq askar yuborar edi. Amir Temurning talabi bo'yicha ushbu lashkar quyidagi 9 qism (favj) ga bo'linishi kerak edi. Asosiy ko'rpus yoki rezerv (qo'l) bir qismni, o'ng qanot (barong'or) uch qismni, so'l qanot (javong'or) uch qismni, ilg'or favj (avong'or) bir qismni, oldingi bo'linma (qoravul) bir qismni tashkil etar edi. O'ng va so'l qanotlar (barong'or va javong'or) ning har biri uch qismdan iborat bo'lib, ilg'or qismlar, o'ng va chap yoki birinchi va ikkinchi bo'linmalarga (avong'or chapovulva shig'ovulga) bo'linar edi.

¹⁵“Jang bo'ladigan yerni tanlashda quyidagilar etiborga olinishi kerak edi: **1) suv; 2) lashkarni joylash va saqlash uchun qulay bo'lgan joy; 3) Jang uchun tanlangan yerda dushman ustida ustunlik qilish mumkun bo'lishi va ayniqsa yuz va ko'zga quyosh tushmasligi; 4) jang maydoni keng va tekis bo'lishi.**” Yurishga jo'natishdan oldin Amir Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan. Ayni chog'da ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo'shin to'plash uchun maxsus buyruq-tunqal e'lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo'mondonning ad'yutanti-tavachi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo'shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o'rni, jangovar jartib-yasoli hamda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni nazorat qilish ham yuklatilgan edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga ko'ra, Temurbek Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo'shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog', kiyim kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta'minlashni o'z noiblariga buyurgan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo'shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o'n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan.

Jang oldidan amir qo'shinlari tekis harakat bilan yurishlari uchun har bir safning joyini tayin qilar edi. Qo'shin o'z otlarini o'ngga ham so'lga ham burmasdan, to'g'ri borishlari, dushman bilan to'qnashganda, shiddat bilan unga tashlaniishlari kerak edi. Bu tadbir safda turgan qo'shinlarning behuda otishma bilan shug'ullanmasdan, shiddatli hujum qilishlariga qaragan edi. Asosiy qo'shinaridan ilg'orroqqa yuborilgan, yengil qo'shnlardan tayinlangan qoravullar o'q-yoy va nayzalar otib, jangni boshlab yuborishlari lozim edi. Tajribaga ega va mohir sarkarda jang oldidan

¹⁵. “Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur harbiy san'ati strategiya va taktikasi” M. Ivanin. “Fan” nashriyoti. 1994-yil 187- 188 bet.

jang maydonni sinchiklab ko'zdan kechirishi, dushmanning qaysi tarfdan ustun ekanligini o'rganishi, o'z nuqsonini tez orada yo'qota olishni dushman alohida ajratilgan qismlar bilan hujumga o'tayotgani yoki bor qo'shinlarini birvarakayiga jangga kiritganligini kuzatishi, unga qarshi ishonch bilan harakat qilishi, muvofaqqiyatga erishish uchun maxfiy rejalari bor yo'qligini bilish kerak edi. Amir Temurning aytishicha, dushman hujum qilishi yoki chekinmoqchi, ekanligini hujumni takrorlamoqchiligi yoki birinchi hujum bilan qanoatlanayotganligini kuzatish va tezda o'qib olish katta san'at hisoblanadi. Sarkarda jangpaytida o'zini yo'qotmasligi kerak. Kurashchi o'z tanasi qismlaridan- qo'llari, oyoqlar, boshi va shu kabilardan qurol sifatida qanday foydalansa, sarkarda ham o'z jangchilarining lozim bo'lganda, kamon, oybolta, gurzi, qilichni shunday o'z o'rnida ishlatishlarini kuzatib va boshqarib turishi lozim. Jangga qoravullardan so'ng, avong'or kirardi. Markaziy avong'orga madad kerak bo'lganda jangga avvalo o'ng qanot avong'ori (barong'or avong'ori) kirar edi. Agar madad kuchiga yana ehtiyoj sezilsa unda jangga o'ng qanotning chap bo'lagi (barong'orning birinchi favji) kirar edi. Agar ular ham yetarli bo'lmasa, jangga ikki qanotning qolgan qismlari (barong'orning ikkinchi favji va javong'orning ikkinchi favji) kirib, o'sha zahoti bu haqda Amir Temurga habar berilardi. Umohir sarkarda sifatida dushmanning hujum qilish usullari va xususiyatlarini bilish uchun boshqa biror maqsadni ko'zlab, katta bo'lmagan qismlarni oldinma- ketin jangga kiritar edi. Agar bu harakatlar ham natija bermasa, Amir oxirgi hujum muvofaqqiyatli bo'lishiga ishongan holda, asosiy kuchlarga qo'shilib, qo'l (ehtiyot qism) bilan ozi jangga kirishi lozim edi.

O'sha davrlarda deyarli barcha xalqlar urush vaqtida tartibli saflarda tizilmasdan, to'da-to'da bo'lib, taktik mulohazalarsiz jang qiladigan, o'z jasurligiga berilib ketib, dushmanga tartibsiz ravshda tashlanadigan bir vaqtda Amir Temur lashkarlari tartibli saflarga tizilgan va bir necha qismlardan iborat bo'lib hamda ular jangga birin ketin kiritilib nihoyat so'nggi hujumlar bilan dushman kuchsizlantirilib, holdan toydirilgach har doim g'alabani taminlashi mumkin bo'lgan, kuchli va bardam rezerv jangga kiritilardi. Shuni qayt qilish kerakki, oldingi qator jangchilari unchalik ko'p bo'lmasdan dushman hujumiga bas kelaolmas edi. Amir Temur ularga madad berish uchun avval ikki qanot o'rtasidagi keyin esa yon tomondagi askarlarini yuborardi. Ular jangga kirganda juda kuchli hayqiriq bilan jang olib borib, dushman avong'ori tartibini buzishlari kerak edi. Tekis yerlarda jang olib borishning qulayligi shunda ediki, O'rta Osiyo otliq askarlari mag'lubiyatga uchraganda, qirilib ketishdan xalos bo'lish uchun tarqalib qochishar, keyin esa kelishilgan joyda uchrashishar, deyarli har doim pistirmadan foydalanish oqibatida dushmanni taxlikada ushlab turishar, bunday taxlika ularni mag'lubiyat keltiruvchi shiddatli va kuchli taqibdan saqlab turardi. Bu usullar shunchalik puxta o'ylanganki ular olib borgan janglarning deyarli hammasi hal qiluvchi bo'lib, dushman qo'shinlarining tor-mor bo'lishiga olib keldi.

Xarbiy unvon berish: Xar bir o'nlikda saralangan jangchilar orasidan muloxazakor va mard jangchi tanlab olinib, qolgan 9 jangchining roziligidan so'ng o'nboshi etib saylanardi; o'nboshilardan esa faoliyati va qobilyatiga qarab, yuzboshi saylanardi; o'nta yuzboshidan esa harbiy ishlarda mohir va tajribaga ega amirlar farzandi yoki aslzodalar avlodidan bo'lgan jasur kishilardan mingboshi tayinlanardi. Har bir boshliq kerak bo'lib qolganda, o'rnini bosishi mukun bo'lgan yordamchiga ega edi.

Boshliqalar huquqi: O'nboshilar qochib ketga yoki o'lgan jangchilar o'rniga boshqa jangchilarni qabul qilish huquqiga ega, edilar; yuzboshilar o'z birodarlari tanlab olgan jangchilarni o'nboshilik vazifasiga, mingboshilar esa shu tarzda o'nboshilar ichidan tanlab olinganlarini yuzboshilik vazifasiga tasdiqlar edilar. Amir Temurga o'nboshi va yuzboshilarning faqatgina o'lgan qochib ketgani va o'rniga kim qo'yilganligini haqida malumot beradilar. Oddiy fuqaro (raiyyat) ni boshqarishda ham unvon berishlar deyarli shu tarzda bo'lgan. Harbiylar orasida ham, raiyyat orasida ham boshliqlarning vazifaliri itoatsizlani jazolash, o'z burchlarini bajara olmaganlarini haydash va ularning o'rniga boshqa kishilarni saylashdan iborat edi. Amir Temur jismoniy jazo berishni yoqtirmaganligi uchun uni taqiqlab qo'ygan. Hokimiyati qamchi va tayoqdan kuchsiz bo'lgan boshliq o'zi egallab turgan lavozimga loyiq emas der edi. Shunday qilib oddiy jangchilar ham o'nboshi va yuzboshi lavozimlariga erishishlari mumkun edi. Lekin oliy mansablarni egallash uchun yuz boshilar alohida xizmat ko'rsatishlari yoki alohida qobilyatga ega bo'lishlari kerak edi. Mingboshilik lavozimiga, odatda amirlar va aslzodalar yani qabila boshliqlari va ularning farzandlari ko'tarilishi mumkun edi. Binobarin bu lavozimlarga mol dunyosimadrasalarda o'qishi uchun imkon beruvchi siyosiy hokimiyatga ega aslzodlarga mansub, oliy tabaqadagi kishilar saylanar edi. Amirlarning 12 darajaga bo'linishi, ularning qo'li ostidagilarning ko'p yoki kamligiga bog'liq edi. Masalan birinchi darajali amir ming kishilik otliqqa, ikkinchi, darajadagi amir ikki ming otliqqa va hokozo, o'n ikkinchi darajadagi amir 12 ming va undan ko'proq otlikga boshchilik qilardi.

Maosh taynlanishi: Odatda jangchilar maoshi ot, qo'y, tiya va boshqa narsalarning bahosi bilan o'lchardilar. shu tufayli Amir Temur jangchi maoshini shu jangchiga tegishli otning narxiga teng qilib belgilar edi. A'lo jangchi (baxodir) larning maoshi 2 tadan 4tagacha ot narxiga teng kelsa, yo'lboshilar o'nta jangchi oladigan maoshni, yuzboshilar 2ta o'nboshi oladigann maoshni, mingboshilar 3ta yuzboshining maoshiga to'g'ri keladigan maosh olar edilar. Jinoyat qilgan har bir jangchi o'z maoshining o'ndan bir qismidan maxrum etilar edi. Amirlar maoshi ularning darajasiga qarab, ming va 10 min got narxi, Amir Temur avlodlariniki esa 12 ming ot narxi bilan belgilanib, ularga viloyatlar ham hadya etilar edi.

Amir Temur pul qadri va narx-navo o'zgarganda, jangchilar zara ko'rmasliklari uchun maoshni o'zining otiga bog'lab qo'ygan. Narx-navo o'zgarishi tufayli

qimmatchilik bo'lib, ketadigan xollarni nazarda tutib ot narxini maosh uchun mezon qilgani Amir Temurning iqtisodiyotni nihoyatda chuqur bilishidan va avom muhofazasini o'ylab ish yuritganidan dalolat beradi. Amir Temurning boshqa farzand va nabiralari taminoti ularning qarindoshlik darajasi va yoshiga qarab, kamayib borardi. Piyoda askarlar xizmatchilar (amirlar, Amir Temurning qurolbardorlari va xos xizmatchilari) va chodirchilar yuztadan mingtagacha ot narxiga teng maosh olardilar. Piyoda askarlar saralangan va siinalgan jangchilardan iborat bo'lganligi hamda ularni taminlash qimmatga tushishi sababli koo'p sonli bo'la olmas edi. Qo'shinlar maoshi maxsus boshliqlar tomonidan boshqariladigan harbiy viloyatlarga bo'lingan yerlar hisobidan hamda bazi shahar va viloyatlar daromadlaridan belgilanardi. Amir Temur o'zi tanga zarb ettirganligi tufayli jangchilariga pul bilan ham maosh to'lanar edi. Boshqalarga maosh arpa va boshqa don mahsulotlari bilan ham to'lanar edi. Ammo ot maosh to'lashda qiymati birligi sifatida qabul qilingan edi.

Janggovor xizmat ko'rsatgan jangchilarga mukofotlar sharaflash, maoshni oshirish o'lja bo'lishda ulushning oshirilishi, yuqori mansabga ko'tarish faxriy unvon berish baxodir, jasur, botir va boshqa shu kabi nomlar bilan atash sifatida berilsa, butun qoshinlar qismiga nog'ara bayroq bilan taqdirlash va hokozolar berilar edi. Amir Temur qo'shinida qattiq tartib intizom va uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qoshinlarda aniqlik to'g'rilik va harakatning taezligiga aniq rioya etilishi, deyarli bir zaylda saf tortish, va doimiy muntazamlik bo'lishi talab etilar edi.¹⁶ "Amir Temur qo'shinlari harakatlari aniqlik bilan olib borilar, Boyazid bilan bo'ladigan jangdan avval Samarqanddan kelgan har bir qism jangchilari maxsus rangli kiyim bosh kiygan edilar. Masalan qizil bayroqqa ega qismlar shu rangdagi qalqon egar jabdug' o'qdon, kamar, nayza, gurzi va booshqa aslahalarga ega bo'lsalar, sariq, oq vahokozoda kiyingan qismlar shu rangdagi qurol-yarog' va boshqa aslahalar bilan taminlangan edilar. Qismlar qurollarining xillari bilan ajralib turardi". Shunday qilib, Amir Temur piyoda va otliq askarlarga ega edi. Piyodalar yengil qurollangan bo'lib, jarliklar va o'rmonlardagi janglarga mo'ljallangan, tog' va o'monlar bo'ylab yurilgan kezlarda qo'shinni qo'qisdan boladigan hujumlardan saqlar, qamal paytida hujum qilish va boshqa ishlarda foydalanilardi. Otliq askarlar yengil va og'ir qismlarga bo'lingan edi. Dushman qo'shini soni 40 mingdan ko'proq bo'lganida, unga qarshi Amir Temurning o'zi borardi. Bunday paytda uning qo'shinlari janga quyidagi tartibda bo'linardi: 40 ta bo'linma bevosita Amir Temur ihtiyorida bo'ladi (qul). Ulardan eng saralangan 12 ta bo'linma birinchi qatorni, qolgan 28 tasi esa ikkinchi va uchinchi qatorlarni egallardi. Amir Temurning o'g'illari va nabiralari boshchilik qilayotgan qo'shinlar ko'rsatilgan 40 ta bo'linma o'ng tomonning old qismida, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchilik qilayotgan qo'shinlar esa uning chap tomonining old qismida joylashardi. Barcha qismlar rezerv (tarx)ni tashkil

¹⁶ "Zafarnoma". Sh. Ali Yazdiy. "oqituvchi" nashriyoti. T. 1996 - yil 365 – bet.

etib, qayerga madad kerak bo'lsa, o'sha yerga borardi. Oltita bo'linma o'ng qanotning (barong'orning) asosini yoki uning ikkinchi safini va bitta bo'linma avong'orini, yana shuncha bo'linma shu asosda chap qanot asosi (javong'or)ni tashkil etardi. Ikkinchi safning ikkinch qanoti oldida xuddi shu tartibda va shu sonli qismlar bilan birinchi qator (chapovul shig'ovul) joylashardi. Birinchi qator oldidagi ilg'or (frontda) shuncha bo'linmaga ega malakali boshliqlar va jasur jangchilardan tuzilgan katta avong'or joylashardi. Bu avong'orning oldida xam alohida avong'ori (avong'orning avong'ori) bor edi. Yengil qurollarga ikki bo'linma (so'l va o'ng qanot qorovullari) jangchilari oldidagi soqchilar va ehtiyotkorlik uchun ayg'oqchilik (razvetka) ga yuboriladigan kichkina otliq bo'linmalar yordamida qo'shnlarni qo'qqisdan bo'ladigan xujumdan saqlar va dushman harakatini kuzatib borardilar.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki, to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan mashg'ul bo'lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari — barang'ar xiravuli va juvang'ar hiravuli madadida asosiy ilg'or qism — mang'lay jangga kirgan. Mang'lay ortidan barang'ar hamda juvang'arning qolgan 2 bo'lagi — chapavul va shag'avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni mag'lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo'mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo'l) hal qiluvchi hujumga tashlangan:

Sohibkiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo'lgan: qo'shin markazi 40 qism — polkka taqsimlangan va Oliy bosh qo'mondonga itoat qilgan. Ushbu qismlarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 qismi safning 1qatorida, qolgan 28 qismi 2 va 3qatorlarda joylashgan. Qirq qismning o'ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so'l tarafi oldida qarindoshlar va ittifoqchilar qismlari saf tortgan. 2qatorning barang'arida 6 qism o'z ilg'ori — hiravul bilan o'rin egallagan. Ayni shu miqsordagi qism va hiravulga juvang'ar ham ega bo'lgan.

2-qator barang'ari va juvang'ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or — mang'lay (yoki hiravuli) harakatda bo'lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 qism armiyani qo'qqisdan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan.

.Amir Temurning o'g'illari va nabiralari ham janglarning oldi qatorlarida turgan. Amasalan, Jaloliddin Amiranshoh (1366—1408) — Amir Temurning 3-o'g'li va u otasiga ko'plab janglarda o'zining lashkarboshilik salohiyatini ko'rsatib, otasi bilan birga yirik janglarda qatnashgan. Amir Temur 1390-91-yillar Dashti Qipchoqqa va 1392-yil harbiy mamlakatlarga 5 yillik yurishlari chog'ida Shohruh Mirzoni mamlakatni boshqarishga tayinlab qoldirgan. Ko'p o'tmay, Amir Temur Shohruxni o'z yoniga chaqirib oladi va 17 yoshli Shohrux jangovar harakatlarda qatnasha boshlaydi. Shohrux Amir Temurning 7 yillik yurishida, xususan, Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda bevosita qatnashgan, lashkarning ilg'or, mang'lay, juvang'ar qismlarini boshqargan; janglarda shaxsiy dov-yuraklik va mahorat namoyish etgan. Uni adolatparvar, raiyat tinchligini ko'zlovchi shaxs

sifatida bilganlar; qamalda qolgan shaharlar aholisi aksari hollarda sulh taklifi bilan Shohruxga murojaat qilganlar va u ham o'z yordamini ayamagan. Ba'zi hollarda, Amir Temur Shohruxni lashkarning o'g'ruq qismini qo'riqlashga mutasaddi qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da yozishicha, Amir Temur hayotining keyingi yillarida Shohruxning davlatdorlik sifatlariga alohida e'tibor bergan. Chunonchi, Xitoyga yurishi chog'ida, saltanat xavfsizligini ta'minlash, xususan, harbiy o'lkalarni idora etish kabi katta mas'uliyatni Shohrux Mirzo zimmasiga yuklaydi va uni Xurosonda qoldiradi

Muhammad Sulton Mirzo (1375-1403) — temuriy shahzoda; Amir Temurning nabirasi. Muhammad Jahongir Mirzoning to'ng'ich o'g'li. Xonzoda (Sevin beka) begimdan tug'ilgan. Amir Temur suyukli o'g'li Jahongir Mirzo vafotidan so'ng, o'zining barcha orzu-umidlarini Muhammad Sultonga bog'lab, uni o'zidan keyin toju taxtning yagona vorisi deb bilardi. Muhammad Sulton bobosi Amir Temurga o'xshab jasoratli, qat'iyatli, zukko, dushmanga nisbatan shafkatsiz, dovyurak jangchi edi. 1397 yil qishida Amir Temur Xitoyga qarshi bo'lajak yurishga tayyorgarlik ko'rish chog'ida Muhammad Sultonga Yettisuvda Ashpara istehkomini qurishga va u yerda dehqonchilikni rivojlantirishga farmon bergandi. Shu maqsadda Muhammad Sultonga 40 ming qo'shin berilgan. 1402 yilda Amir Temurning Boyazid I Yildirimga qarshi yurishida Muhammad Sulton faol qatnashadi. U Kichik Osiyoning g'arbiy chekkasigacha boradi. U yerdan qaytayotib, 1403 yil 12 martda Qora Hisor mavzeida shamollab 27 yoshida vafot etadi

Xalil Sulton (1384-1411) Amir Temurnint nabirasi. Mironshohning o'g'li. Saroyulkxonim (Bibixonim) tarbiya qilgan. 15 yoshli Xalil Sulton Sohibqironning Hindistonga kilgan yurishida (1399—1400) qatnashib katta jasorat ko'rsatgan. Sohibqironning Xitoyga kilgan yurishida Xalil Sulton qo'shinining o'ng qanoti boshlig'i etib tayinlangan.

Pirmuhammad Mirzo (1376— 1407). U bobosi Amir Temurning bir necha harbiy yurishlarida, jumladan, Hindiston fathida qatnashgan. Amir Temur vafoti oldidan P.ni o'ziga valiahd deb e'lon qilgan edi.

Amir Temur qoshini lager bo'lib joylashganda va tunashga yotishganda manzilgoh maxsus soqchilar tomonidan qo'riqlanardi. Amir Temurning o'zi qo'shinlarga boshchilik qilganda, manzilgohni qo'qisdan bo'ladigan hujumlardan saqlash uchun 12 ming otliq tayinlanar edi. Ular 3 mingtadan har to't tarafga joylashtirilar edi. (Amir Temur qarorgohi atrofi xaf tug'ilganda, handak qazib o'ralar, xoda va qalqonlar bilan mustahkamlanar edi.)Bu qo'shinlar manzilgohdan yarim farsang masofada joylashib, yetakchi postlarga, ular esa, o'z navbatida, soqchilarga ega bo'lib, bir-birlari bilan muntazam aloqa bog'lab turishar,dushman xaqidagi barcha malumotlarnimanzilgohga yetkazishar edi.Manzilgohda maxsus mirshablar bo'lib, ular tartib intizom, markitantlar (qo'shin bilan birga yurib,oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlar)faoliyati, oziq – ovqat narxi va manzilgohda ro'y

berishi mumkun bo'lgan o'g'riliklarga javobgar edi¹⁷."Shuni aytish joizki Temur qo'shini safarga otlanganda,qoshin ortidan quritilgan go'sht, bug'doy va arpa kabi mahsulotlar bilan savdo qiluvchi savdogarlar ham birga yurgan. Xattoki ko'chma hammomlar ham faoliyat yuritgan". Agarda manzilgohdan 4 farsang masofada ham kimdir yarador bo'lgan, o'lgan yoki talab ketilgan bo'lsa, bu jinoyatlar uchun manashu qismlar javobgar edi.

¹⁷ "Amir Temur harbiy mahorati". H. Dadaboev. "Yozuvchi" nashriyoti. T. 1996-yil 12- bet.

1. 3. Amir Temurning janglarda qo'llagan harbiy taktika va usullari.

Harbiy qo'mondonga beriladigan eng xolis baho-uning janglarda erishgan galabasidir. Shu nuqtai nazardan Temur tarixidagi buyuk sarkardalar orasida alohida ajralib turadi.

Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli harbiy sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ldi.

Dunyoning 27 mamlakatini zabt etishda Amir Temurning qo'shini va uning harbiy san'ati bosh omil bo'ldi. Uning g'olibona yurishlarida qo'llagan taktik va strategik jang qilish uslublari bugungi kunda ham jahondagi etakchi mamlakatlarning harbiy bilim va akademiyalarida o'rganiladi va o'qitiladi.

Amir Temur 1371-1404 yillar orasida Mo'g'liston, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya), Hindiston, Gurjiston, Armaniston, Kavkaz orti o'lkalari ustiga harbiy yurishlar qildi.

Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar hukmronligidan ozod etib, bu qad. mamlakatda mustaqil davlat barpo etgan bo'lsada, hali mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan ayrim viloyat hokimlari Amir Temur hakimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan mamlakatning sharqiy va shim. hududlari notinch edi. Mo'g'uliston bilan Oq O'rda hukmdorlari Farg'ona vodiysining sharqi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talontaroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta o'sha joy aholisiga tinchlik yo'lini taklif etgan, bu yo'l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan.

Amir Temurning boshqa davlatlar haqida malumot to'plash uchun qo'llagan usullri :

Amir Temur davlatining chagaradosh yoki umuman chegaradosh bo'lmagan davlatlarning barcha xududlarida o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qo'ygan edi. Ular (josuslar) jumlasidan, uning amaldorlaridan biri Amir Otlamish bo'lsa. yana biri faqih Mas'ud al-Quhoniy-u Temur devoni as-hoblarining ko'zi edi. Josuslarning birisi Qohirada, Mo'g'ilistonda bo'lsa, unisi Damashqda, Shamiysoniyadagi so'fiylardan biri edi. Ularning biri chakanafurush bo'lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va hunarmand, munajjim va o'z tabiaticha ish qiladigan lar, gapchinoz qalandarlaru sayoq darveshlar. Zarofatli meshkoblar, latofatli etikdo'zlar, alvasti va xiylagar bo'lib, ular chor atrofda bo'layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga etkazib, o'zlari afzal ko'rgan ishlarini unga bayon etardilar. Ular vaznlar, narx-navolar to'g'risida unga zikr qilib, manzilu shaharlarni tavsiflardilar. Ularning tekis va notekis joylarining suvratini keltirib, uylari va

diyorlari o'rinlarini chizib ko'rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yoki uzoq, tor yoki kengligini ularning qaysi tevarak-atrofdagi, g'arb yoki sharqda, shaharlar va qishloqlarning ismlarini, manzil va panohjoylar nomlarini, har joyning ahliyu boshliqlari, amirlari, ulug'lari, fozillari, shariflari, boylariyu faqirlarini, ularning hai birining ismi va laqabini, shuhrati va nasabini, ularning hunari va (ega bo'lgan) vositalarini (to'la-to'kis) bayon qilardilar.

Natijada, Temur o'z fikri bilan shularni yaqqol ko'rib, tafakkuri vositasida o'z yerlaridan o'zga yerlar ustidan tasarruf yuritardi». Bunday malumotlar savdo munosabatlari bohonasida ham to'planishi mumkin edi. Amir Temur Chingizxon singari sado karvonlarini O'rta Osiyoning turli o'lkalariga, Xitoy, Hindiston, Misr, Saudiya Arabistoni, Suriya, Gurjiston, va xatto Yevropa davlatlariga ham yuborardi. Karvon qaytib kelgandan keyin, darvesh ko'rinishida savdogarlar bilan karvonga qo'shilgan ayonlar yo'l davomida ko'rgan davlatlaridagi shart-sharoit, shu davlatda yshovchi xalq urf-odatlarini, eng asosiysi, o'sha davlat hukmdorlarining o'z fuqarolariga bo'lgan munosabatlari haqida malumot beradilar.

Amir Temur sayohatchilarga, savdogar va karvonboshilarga alohida homiylik qilar, ulardan o'zlari ko'rgan mamlakatlarning holati haqida muhim malumotlarni bilib olardi. Ulardan lozim bo'lgan malumotni olish uchun Amir Temur maxsus ishonchli amaldorlar tayin qilgan edi, Bu amaldorlar mol-ayirboshlash, chetellik sayohatchi olimlarning asl niyatlari haqida aniq malumotlarni to'lashlari, ayg'oqchilar yordamida o'zga davlat hukmdorlarining Amir Temurga bo'lgan munosabatlarini o'rganishlari, bu malumotlarni tez va aniq qilib unga yrtkazishari lozim edi. Agar bu malumotlar ham yrtarli bo'lmasa, elchilar yuborardi, ular esa, o'z navbatida unga kerakli malumotlarni yetkazishlari shart edi. Bazida esa, kerakli malumotlarni to'plash uchun darveshlarni jo'natar edi.

Zaxiralar karvoni va taminot usuli :

Yuqorida bayon qilingan, yurishlarda jangchilar o'zlari bilan olib yuradiga qurol zaxiralari, chodir va boshqa buyumlar ro'yxatidan ko'rinadiki, Amir Temur qoshinlari ketidan juda ko'plab aravalar, bevosita jangda qatnashmaydigan amaldorlar, qo'shin sonidan deyarli uch marta ko'p bo'lgan otlar yuborishi kerak edi. Qoshimcha qurol-yarog', aftidan, yukchi ot va aravalarga yuklatilardi. O'zining oxirgi yurishlarida Amir Temur qoshinida Grigoryan olovi, tosh va boshqa narsalarni uloqtiruvchi mis qozonlar (mortiralar-qisqa stvolli to'plar), manjaniq (katapulta), qamal uchun ishlatiladigan moslamalarni o'rnatish uchun kerakli asbob-uskunalar bore di.

Bularga yana talon- taroj qilingan mol-mulklar, asirlar va chorva mollarini ham qo'shsak qo'shin ketidan qanchalik ko'p aravalar borishini tasavvur qilsa bo'ladi. Lekin, Qo'shinlar urush paytida qanday qilib bu ulkan aravalar karvoni, ko'plab yilqilar va boshqa yuklar bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, o'z ovullaridan uzoqda va dushman orasida harakat qila olganlar? Garchi ular dushman kuchlaridan ustunroq kuchlarga ega bo'lib, bu kuchlarning bir qismini aravalar karvonini ximoya qilish uchun ajratishgan. Ammo Amir Temur qo'shinining ko'p, sonli yilqilar va chorva mollarini ko'chirib yurishlariga hamda oziq-ovqat, qurol-yarog' va boshqa

kerakli anjomlarni tashib yurishlariga, haf tug'ilganda, ularni dushman hujumidan himoya qilishlariga, suv va yem yetishmaganda, chora mollarini saqlay olganliklariga qoyil qilsak bo'ladi.

Amir Temurning boshqa davlatlarni bosib olishda qo'llagan harbiy va siyosiy qoidalar va usullari:

Amir Temur so'zlariga binoan, siyosat bilan maqsadga erishish mumkun bo'lgan yerlarda qurol bilan harakat qilish noto'g'ridir. Amir Temur boshqarishning turli sohalariga odamlarni o'zi tanlar har bir narsani o'zi nazorat qilib turar edi. Uning gapiga qaraganda, u odamlar bilan qisqa, mehribonlik va sabr toqat bilan muomala qilar, ular orasida tartib o'rnatib ko'rsatmalarining bajarilishini talab qilar edi. Amir Temur o'z xizmatidagilarni rag'batlantirishda boyliklarni ayamas, ularni o'zi bilan ivqatlanishga taklif qilar, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilar, Adolatli va beg'araz bo'lib, o'z qo'shinlar va fuqarolarini, o'z tabiri bilan aytganda, qo'rquv va umid o'rtasida ushlab turar edi.

Amir Temur o'z yordamchilarini aqlli kishiar orasidan tanlar, viloyatlarga hokim qilib, halol odamlarni qo'yar, ular esa o'z navbatida, xalq va qo'shin fel atvori umuman diqqatga sazovor har bir narsa haqida unga hisobot berib turardilar. Yolg'on xabar zo'rlik va shavqatsizlik uchun u boshliqlarni qattiq jazolardi. Maxsus ishonchli kishilar Amir temurga xalqning holati haqida habar berib turishar o'zi esa, shu xalq urf-odatlariga amal qilishga, umuman xalq muhabbatini qozonishga harakat qilar edi.

Amir Temur taxti atrofida uning o'gillari, nabiralari va boshqaqa qarindoshlari, aqrindoshlik darajasi va ahamiyatiga qarab yarim oy shaklida joylashar edilar.

Temuriylar harbiy yurishlarga ko'proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida o'tlanishni ma'qul bilganlar. Safar qoidasiga ko'ra, har bir sarkarda o'z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo'linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo'shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to'silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo'linmalar tomonidan qo'riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, kismning o'z paroli — o'ron belgilangan.

Safar arafasida Temurbek o'z pirlari va rahnamolari huzuriga sof ishonch hamda pok irodat bilan tashrif buyurib, ziyorat shartlarini bajo keltirgan. Muqaddas va muborak mozorlarni tavof qilgan. Mayib-majruhlarga, muhtoj va yo'qsillarga nazru sadaqalar ulashgan.

Sohibqiron o'ta tahlikali onlarda ham sarosimaga tushmas, hissiyotga berilmas, metinday mustahkam irodasi ikkilanishga, qat'iyatsizlik ko'rsatishga aslo yo'l qo'ymas edi. Biror marta ham mag'lubiyat («loy jangi» bundan istisno) alamini tortib ko'rmagan muzaffar qo'shin oliy bosh qo'mondonning har qanday og'ir va chigal vaziyatdan ham tadbirkorlik bilan chiqib ketishiga butun vujudi bilan ishonar.

Shuning uchun g'anim bilan faqat g'alabani ko'zlagan holda jon-jahdi bilan jang qilar edi.

Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga mahcha-yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug'lar bilan bezatilgan oliy bosh qo'mondonning borgohi balandlikka tikilgan. U erdan qism va bo'linmalarning maydondagi harakati, jangning borishi Amir Temur tomonidan kuzatib turilgan. Odatga ko'ra borgoh oldida harbiy orkestr askarlarni mardlikka rag'batlantiruvchi, ularning jangovar ruhini ko'taruvchi kuylarni tinimsiz chalib turgan.

Temurbek qo'shini zabt etilgan qal'a, shahar va viloyatlarni o'zboshimchalik bilan g'orat qilish huquqidan butunlay mahrum edi.

Sohibqiron janglarda mardlik va qahramonlik namunalari ko'rsatgan har qanday raqibini xurmat qilar, jangchilarini undan o'rnak olishga undar edi.

Mo'g'ulistonga yurishi. Bu orada Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamariddin bilan ham to'qnashib qoldi, chunki bu davrda uning Movarounnahrqa bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370-1371-yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqin qilib, talab qaytgandi. 1376-yilda esa Qamariddin hatto Farg'ona vodiysining talaygina qismini bosib oldi. Amir Temur mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan bo'layotgan muttasil tahdidni bartaraf qilish uchun Qamariddinga jiddiy zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371-1390) mobaynida Sohibqiron Mo'g'ulistonga etti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alabalar qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda ichki tarqoqlik, o'zaro nizolar, shuningdek, Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'yib, ushbu hududda yashovchi el-u elat va xalqlarni yagona davlatga birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr aholisi taqdirida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Eron va Kavkazga yurishi. Ammo, Amir Temur bu bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundiish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Erondagi ijtioiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keldi. Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381-yilda u Hirotni egalladi. Sarx, Jom, Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson, xususan uning poytaxti Hirot strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, Eron, Iroq, Shom va boshqa mamlakatlarga o'tishda ko'prik vazifasini o'tardi. 1381-1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384-yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari bo'ysindirildi.

Temurning Oltin O'rdaga qarshi 1395-yildagi yurishi. Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar hukmronligidan ozod etib, bu qadimiy mamlakatda mustaqil davlat barpo etgan bo'lsada, hali mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan ayrim viloya amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlari notinch edi. Mo'g'uliston bilan Oq O'rda hukmdorlari Farg'ona vodiysining sharqi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talon-taroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga kata ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. 1370-yil kuzi va 1371-yil bahorida amir Zinda Chashmga zarba berib, Shibirg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Ammo Xorazm Oq O'rda hukmdorlariga tayanib, hanuz bo'ysunishdan bosh tortib kelardi. Xorazmni Amir Temur Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yo'l bilan hal etilmagach, Amir Temur Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Birinchi yurishi, 1371-yil yoz (iyul)ida Kat shahrini egallash bilan yakunlandi. Amir Temurning 1373-yil bahori va 1375-yil yozida Xorazm tomonga qilgan ikki yurishi natijasiz tugadi. Bu asnoda Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan ittifoq tuzib olgan Xorazm hukmdori Yusuf so'fi, uning yordamida Amir Temur davlati hududlariga bir necha bor yurish qilib, Qorako'l viloyati va Buxoro tumanlarini talon-taroj etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur etdi. Lekin, bu yurish ham avvalgilari kabi sulh tuzish bilan tugadi. Biroq shunga qaramay, Yusuf so'fi ilgari Xorazmning Chig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan janubi-sharqiy (Kot va Xiva shaharlari birga) qismini yana qaytadan bosib oldi. Amir Temur davlatiga nisbatan Yusuf so'fining bunday tajovuzkorona siyosati Xorazm ustiga Amir Temurning beshinchi marta yurish qilishiga sabab bo'ldi. 1388-yilda Xorazmning poytaxti vayron etilib, Amir Temur davlatiga bo'ysundirildi.

Qunduzcha jangi - Amir Temur qo'shinlari bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish qo'shini o'rtasida hozirgi samara bilan Chistopol shaharlari ora-lig'ida, Volga daryosining sharqiy sohilida joylashgan Qunduzcha (hozirgi Kondurcha) mavzeida sodir bo'lgan jang 1391- yilda o'rta asrlardagi eng yirik janglardan biri. Sohibqironning Eron, Zakavkazyedagi mavqei ortib borayotganini g'arazgo'ylik bilan kuzatayotgan To'xtamish Amir Temurga qarshi Misr bilan ittifoq tuzishni rejalashtirgan. U Sohibqironning Erondaligidan foydalanib, hatto Movarounnahrda ham bosqinlar uyushtiradi. Amir Temur To'xtamishxonning g'animlik harakatlariga chek qo'yish maqsadida 1391 yil unga qarshi yurishga jazm etadi va umumiy safarbarlik e'lon qiladi. 200 ming kishilik qo'shin O'tror tomon yo'l oladi. Qozog'istondagi Ulug'tog' qoyalarida Sohib-qironning bu yurish haqida yozib qoldirgan xotira yozuvi saqlangan. Unda jumladan shunday deyilgan: "Tarix yegti yuz to'qson

uchta, qo'y yil yozning ora oy Turonning sultoni Temurbek 200 ming cherik bila islom uchun To'xtamishxonning xonig'a yo'ridi. Bu yerga yetib, belgu bo'lsun teb bu yo'bani ko'pard. Tangri nisbat ber-gay, inshaolloh, Tangri el kishiga rahmat qilg'ay, bizni duo bila yod qil-g'ay".

Sharafuddin Ali Yazdiynng yozishicha, To'xtamishxon qo'shini Amir temurnikidan ancha ko'p bo'lgan. Qunduzcha jangida har ikki tomondan 500 mingga yaqin jangchi ishtirok etgan.

¹⁸“Amir Temur qo'shinni an'anaviy tartib — markaz, so'l va o'ng qanot holidan o'zgacha tartibda tuzishga ahd qiladi va jangovar tartibning yangi usulini qo'llaydi, qo'shin 7 qo'lga taqsim etiladi. Markazdagi qo'lga amalda amir Sulaymonshoh qo'mondon bo'lgan. Uning ortidan Muhammad Sulton bosh bo'lgan qo'l joylashgan, bu qo'l ketidan Sohibqiron qo'l ostida bo'lgan 20 qo'shin (qism) zaxiradagi qism sifatida borgan. Barong'arga Mironshoh mirzo, qunbul (qanot)ga amir Xoji Sayfuddin barlos, juvong'arga Umar-shayx mirzo, unga qunbul sifatida amir Berdibek, Saribug'o qo'llari joylashgan. O'g'ruq va zaxira qismlarga qo'mondonlikni Amir Temur o'z zimmasiga olgan. Uning maqomi markaz ortida bo'lib, kim yordamga muhtoj bo'lsa o'shanga ko'mak yuborishga tayyor turgan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha jang taqdirini ushbu harbiy qism hal etgan”.

To'xtamishxon qo'shinini 5 qo'lga taqsimlab, ularga Jo'ji xonadoniga mansub shahzodalar hamda eng oliy dara-jadagi amirlarni qo'mondon qilib tayinlaydi. Ikki tomon qo'shini bir-birini ko'ra oladigan masofaga kelganda Amir Temur dushman ko'z o'ngida o'tov, chodirlar o'rnatishni, gilamlar yozishni buyuradi. Bunday namoyishkorona sovuqqonlik dushman ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, uni esankiratib qo'yishi lozim edi.

Jang 1391-yil 18 iyun kuni erta tongda Sohibqiron qo'shini ko'z o'ngida otdan tushib Allohdan madad tilab ikki rakaat namoz o'qigan. Bayroq va tug'larni ko'targan qo'shin nog'ora chalib, suron aytib, ulkan jang kar-naylari sadolari ostida jangni boshlaydilar. Umarshayx qo'mondonligi ostidagi so'l qanot To'xtamish tomonidan berilgan zarba natijasida mushqul ahvolda qoladi, raqib qo'shini so'l qanotni yorib o'tib orqa tomondan hujum uyushtirishga erishadi. Amir Temur bu paytda qipchoqlarning asosiy qismini ta'qib etmoqda edi, lekin u zaxiradagi qism bilan o'zining so'l qanotiga yordamga keladi va dushman uloqtirib tashlanadi. Shundan so'ng To'xtamish asosiy zarbani Shayx Temur Sulduz rah-barligidagi qismlarga qaratadi va uning favjini yakson etib o'rtani yorib chiqadi, lekin qarshisidan Umarshayx Mirzo qo'shini chiqib muhorabaga kirishadi. Shu tariqa Hoji Sayfuddin barlos boshchiligidagi qanot qo'shinlari g'animning juvang'ariga hujum qilishi boshlanadi, bu hujum dushman juvang'ari qarshiligini sindiradi. To'xtamish Hoji Sayfuddinga qarshi quch tashlaydi, biroq ularga qarshi amir Jahon-shoh qismi tashlanadi. Shayx Temur Sulduz qatorlarining yorib o'tilishi ham to'xtatilgan. Ibn Arabshohning yozishicha, To'xtamish qo'shinining bir qismi ikki lashkarboshi o'rtasida chiqqan nizo tufayli jang maydonidan qochgan. Qunduzcha jangi

¹⁸ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: "O'zbekiston", jurnali. 1996 yil.

Sohibqiron foydasiga hal bo'lgan. To'xtamish qochgan, uning ketidan amirlar, sarkardalar va qolgan-qutgan qo'shini ham ergashgan. Sohibqiron nihoyat otdan tushib Allohga hamdu sano aytgan. Amir Temur har o'n otlikdan yettitasini dushmani ta'qib etishga jo'natgan. Volga daryosigacha ta'qib etilgan To'qtamishxon qo'shini jangchilari o'ldirilgan yoxud asir olingan. Bir oyga yaqin dam olgan Sohibqiron katta o'lja bilan Movarounnahrda qaytgan. Shunday katta jangda mag'lub bo'lgan To'qtamishxon yan qoshin to'plab, Amir Temur bilan jangga shaylanadi. Va oxir-oqibat ikki o'rtada yana bir yirik jang bo'lib o'tadi.

Terek daryosi bo'yidagi jang (1395 yil 15—17 aprel) — Amir Temur va Dashti Qipchoq hukmdori To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo'yida, No'g'ay dashtida sodir bo'ladi.¹⁹ “Amir Temur qo'shini daryo boyiga borganda, dushman qoshini ham daryoning narigi tarafida kutib turar edi. Shunda Amir Temur bunday xiyla qiladi. Yani qo'shinni olib daryoning shimol tarafiga qarab, malum masofa yuradi. Keyin tunash uchun to'xtaydi. Tabiiyki ushman qoshini ham shu zaylda harakat qiladi. Tunda Amir Temur qarorgohidagi askarlarning kiyimini ayollarga kiydiradi, va tezlik bilan asosiy qoshinni ortiga qaytarib, daryoni talofatsiz kechib o'tishiga muaffaq bo'ladi”

Amir Temur 250 ming atrofidagi qo'shinini 7 qo'lga bo'lib, janggohga joylashtirgan. Markazda asosiy qo'l, uning oldida bosh hiravul (manglay), ortida esa chig'davul (avangard) turgan. Qo'shinning o'ng va so'l qanotlari qunbullar bilan mustahkamlangan. Taktik jihatdan bu harbiy ko'shilmalar mustaqil harakat qilgan va faqat oliy bosh qo'mondonga bo'ysungan. Sohibqiron qo'llayotgan jangovar tartib usulining ustun tomonlarini 1391 y.gi jang paytida payqab olgan To'xtamishxon ham o'z armiyasini jang maydonida xuddi raqibidek joylashtirgan. 15 aprel chorshanba kuni qaramaqarshi tomon qo'shinlari (taxminan 450—500 ming) jangovar bayroq va tug'larini kutarib, takbir nidosini aytib bir-biriga yuzlanadi. Jang muqaddimasi Kuncha o'g'lon, Bek Yorliq o'g'lon, Oqtau, Dovud so'fi va Udurqu qo'mondonligidagi To'xtamishxon qismlarining Sohibqiron qo'shini juvang'ariga qattiq hujumi bilan boshlangan. So'l qanotning qo'qqisidan berilgan zarba oqibatida og'ir ahvolga tushib qolganligini ko'rgan Amir Temur markaziy qo'ldagi 27 sara qismdan ko'mak ajratadi. Yordamga o'z vaqtida yetib kelgan askarlar dushman shiddatini qaytarib, qarshi hujumga o'tadi va g'animni qochishga majbur etadi. Qochayotganlarni ta'qib qilishga berilib ketgan anchagina suvoriylar janggohdan uzoqlashib ketadi. Temuriy jangchilarning yo'l qo'ygan taktik ehtiyotsizligi natijasida vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalangan To'xtamishxon o'z askariy saflarini qayta tartibga solib, ta'qibchilarga zo'r beradi va ularni to'zitib yuboradi. Kutilmaganda Sohibqiron qo'l ostida turgan qismlar dushman iskanjasiga tushib, Amir Temurning hayoti xavf ostida qoladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning tasvirlashicha, Sohibqironga birinchi bo'lib ko'makka yetib kelgan amir Shayx Nuriddin rahbarligidagi otliqlar zudlik bilan otdan tushib, yopirilib kelayotgan xon askarlarini yoylardan tinmay otilayotgan o'qlar bilan to'xtatadi. Muhammad Ozod, Alishox. va To'kal bavurchi kabi beklar aravalarni bir-biriga

¹⁹ “Rui De Klavixo esdaliklari” “Yangi Asr Avlodi” .T. 2018-yil 67-bet.

bog‘lab fob yasaydilar. Sohibqiron shu aravalar, ular ustiga qo‘yilgan tura (qalqon) va chapar (chetan) panohida bo‘ladi. Aylana mudofaada qolgan Sohibqironiga Allohddod, Jaku, Husayn Malik qavchin boshliq bo‘limlar yordamga keladi. Ammo, To‘xtamishxon qo‘shinining hammasi borgan sari kuchayadi. Asosiy qo‘ldan ko‘makka tashlangan Muhammad Sulton Mirzo hamda Ustaybek qo‘mondonligidagi qismlarning jangga kirishi, amir Jahonshoh va amir Hoji Sayfuddin qo‘l ostidagi jangchilarning pistirmadan turib Dashti Qipchoq armiyasi so‘l qo‘liga kuchli zarba berishi vaziyatning ma‘lum darajada o‘nglanishiga sabab bo‘ladi.

Jangning 2 kuni yana To‘xtamishxon qo‘shinining hujumi bilan boshlanadi. Xon Isabiy va Baxshi Hoji qismlaridan iborat juvang‘arini muhorabaga tashlaydi. Sohibqironning hirovuli (avangard)ni uloqtirishga erishgan bu qo‘shin qanoti Amir Temur barang‘arida jang qilayotgan amir Hoji Sayfuddin tumanini qurshab oladi va tarqatib yuboradi. Bir qancha askarlarning to‘zg‘ib ketishiga qaramay Xoji Sayfuddin qolgan safdoshlari bilan qarshilik ko‘rsatishni davom ettiradi. O‘z qismdoshlarining matonat bilan kurashayotganini ko‘rgan askarlar ortga qaytib, ular qatoriga qo‘shiladi. Qiyin ahvoddagi qolgan bu tumanga Jahonshoh bahodir, Temur Xoja Oqbo‘g‘a va Rustam mirzolar madadga keladi. Kechgacha davom etgan jang hech bir tomonning ustunligisiz to‘xtaydi.

Jangning so‘nggi kuni tag‘in Dashti Qipchoq qo‘shinining shiddatli hujumi bilan boshlanadi. To‘xtamishxon otliq va piyodani safga tizib, markaz va qanotlarni qo‘shimcha kuchlar bilan mustahkamlab, tashabbusni o‘z qo‘liga olish ilinjida jasur va sara askarlarini jangga kiritadi. Ayni vaqtda xonning ishonchli sarkardalaridan biri Yag‘liboy ham juvang‘ar bilan jangga tashlanadi. Amir Temur ushbu dushman juvang‘arining ancha zaiflashib qolganligini bilgan holda asosiy zarbani unga qaratadi. Natijada, Sohibqiron jangchilarining kuchli hujumlariga bardosh berolmay parokanda bo‘lgan xon askarlari qochishga tushadi. Yag‘liboy qismlari Usmon bahodir boshchiligidagi barang‘ar tomonidan yakson etilib, uloqtirib tashlanadi. Yag‘liboy Usmon baxrdir bilan kechgan yakkamayakka olishuvda halok bo‘ladi. Nihoyat, Sohibqiron butun jang maydoni bo‘ylab hal qiluvchi hujumga o‘tadi. 3 kun davom etgan shafqatsiz olishuv tufayli tinkasi qurigan Dashti Qipchoq armiyasi qarshilikni bas qiladi va uzilkesil mag‘lubiyatga uchraydi. To‘xtamishxon janggohni xos qo‘riqchilari panohida tashlab qochishga muvaffaq bo‘ladi. Amir Temurning ushbu dahshatli to‘qnashuv vaqtida o‘ta tang vaziyatga tushib, undan faqat bor iste‘dod, g‘ayrat hamda kuchni ishga solib sharaf bilan chiqib ketishi uning To‘xtamishxondek qudratli harbiy kuchga ega bo‘lgan, salohiyatli sarkardadan ustun kelganligini ko‘rsatadi.

Hindistonga yurishi. Amir Temurning Hindiston ustiga yurishi qilgan urushi 1398-yil may-1399-yil mart qariyb o‘n bir oy davom etdi. ²⁰“Bu davlatni ichidan

²⁰ “Temur tuziklari”. “Fan” nashriyoti. Toshkent. 2018-yil 63 – bet.

yemirayotgan tartibsizliklar va o'zaro urushlar haqida eshitga Amir Temur yurish uchun chog'landi". 1398- yilning mart oyida Samarqandan chiqib, Termiz shahriga yurib, u yerda kemalardan qurilgan ko'prik orqali Amudaryodan kechib o'tdi. Bu yerda u Xulum va Aznik tarafga yurib, Hindikush tog'lari orqali Hindistonga yurish qilish maqsadida Andarob tomon yo'l oldi. Shu yo'llar orqali Dibalpur qal'asiga yetib keldi. Dibalpur shahri aholisi Amir Temur yqinladhib kelayotganligini eshitib, cho'lda joylashgan va juda kuchli hisoblangan Batnir qal'asiga yashirinishga ulgurdi. 26- noyabrda bu qalani qiyinchilik bilan egallab, Dibalpur shahri yinida ajralgan qo'shin bilan birlashdi. Amir Temur bu yerda oziq-ovqat va aslahalar ortilgan aravalar kelishini poylab, bir necha kunga to'xtadi.

Somina shahridan Dehliga qo'shin uchta guruh bo'lib harakat qildi: markaz va aravalar to'g'ri yo'l bo'ylab, o'ng va so'l qanotlar esa aylana yollardan harakatlandi. 21- dekabrda markazdagilar Panipatga yetib keldi. 24- dekabrda o'ng qanot va qolgan qismlar Jamna daryosi bo'yida joylashgan Jahonnomayi qal'asini egallash uchun yuborildi. Va shundan so'ng Luni shahri tomon yo'l oldi. Bu shahar atrofida ajoyib yaylovlar bo'lganligi sababli otliq jangchilar uchun bu hudud juda muhim edi.²¹ "Men Luna qal'asiga borganimda hayron bo'ldim chunki, shahar mudofasida hech kim ko'rinmas edi. Shunda tunda askarlarim orasida shovqin ko'tarildi. Bori qarasam bir askarimni ilon chaqib o'ldiribdi. Shunda atrofqa qaraganimda atrofda ilonlar galasi mavjud edi. Va bu ilonlarni orqasiga qaytarib, yuborganimizda ilonlar to'g'ri Luni qal'asi tomon harakatlanar edi. Erta tongda Luni qalasini egallaganimda malum bo'ldiki, bu qal'ada faqtgina rohiba ayollar va ilonlar yashar ekan". Amir Temur shu tarzda ko'plab kichik qalalarni qo'lga kiritgandan so'ng, Amir Temur qo'shinlari Dehli atrofida qarorgoh qurib, qo'qqisdan bo'ladigan hujumdan saqlanish niyatida hafsizlik choralarini ko'ra boshladilar. Ertasiga Sulton Mahmud jang qilish maqsadida Dehlidan chiqdi. U 10 ming nafar yaxshi qurollangan otliq askar, 40 ming piyoda jangchi va ko'plab fillarga ega edi. Fillar ustiga o'q nayza va qilich zarbidan himoya qiluvchi yopgich yopib qo'yilgan, ustilariga "arbalet" bilan qurollangan o'qchilar joylashgan minora singari qurilma o'rnatilgan edi. Fillar yonida cho'q to'ldirilgan xumcha, yonayaotgan mum yoki neft otuvchi naftondozlar yerga tushib, ko'plab marotaba zarb bera oladigan temir poynakli raketa uloqtiruvchilar borar edi.

Lekin, Amir Temur jangchilar uchun nomalum bo'lgan bu qurol (raketa)daraxtlarni ildizi bilan sug'irib tashlaydigan, odamlarni huddi kichik toshlardek irg'itib yuboradigan bahaybat fillar kabi, qo'rqinchli emas edi. Amir Temur o'z qoshinlari orasidan fillar kuchini bo'rttirib ko'rsatuvchi fikr paydo bo'lganligini bilib, bu qo'rqinchni bartaraf etish maqsadida qarshi choralar ko'rdi. U chetlari qayrilgan va uchli temir moslamalar tayyorlatib, fillar hujumi paytida ularning oyoqlari tagiga tashlashni, hamda (boshqa malumotlarga qaraganda tuyalar boshiga va yonlariga

²¹ "Men Kim Shibqiron Jahongir". Marsel Brion. "Yangi asr avlodi" nashriyoti.T. 2016-yil 477 bet.

hashak va tikan bog'lab, ularni yoqib, fillarga qarshi yuborishni va u bilan fillar orasida qo'rquv va tartibsizlik keltirib chiqarishni, jangchilarga o'q va nayzalarni fillarning badaniga qarab otmay ularning hartumlarini qilich bilan uzib tashlashni buyurdi. Bu chora tadbirlar jangchilarda mardlik uyg'otib muvofaqqiyat keltirdi. Temur qoshinlari fillar xartumiga jarohat yetkazishi natijasida ularni orqaga chekinishga majbur etib, dushan qoshini orasidagi tartibsizlikni ko'rgan Amir Temur o'z qoshini markazi bilan fillar safiga qaqshatqich zarba berib, ularning ko'p, qismini o'ldirishga dushmanni esa tumtaraqay qilishga erishdi. Amir Temur Dehlini ochiq hujum qilib qo'lga kiritishni o'ylardi. Lekin, ertasi kuni kechasi Sulton Mahmud shaharning qarama-qarshi darvozasi orqali qochib ketdi. Va badavlat Dehli shahri 4- yanvar kuni jangsiz taslim bo'lgandan so'ng, qal'a egallandi. Amir Temur Dehlini bosib olgandan so'ng Hindistonda boshqa qarshilikga uchramadi.

Amir Temur Hindistondan katta o'lja, shu jumladan, 120 jangovar fil bilan qaytdi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga taqsimlab berildi, qolgani Kesh va Samarqand shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi.

Usmonli turklarga qarshi harbiy yurishi. Amir Temurning 1399-1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Xalab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albek), Dimishq(Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Ajamning Ubiliston o'lkasi (Qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek, Turkiyaning katta qismi zabt etiladi.

Zamonasining bu ikki buyuk sarkadasining jang oldidan yozishmalariga etibor beraylik; Tarix goh-gohida o'z sirlarini insoniyat bilan bo'lishib, uni hayratga soladi. Bu sirlarda o'ziga tortuvchi ohanrabo borki, kishi beixtiyor hayrat lazzatidan bahramand bo'ladi. Tarixning ana shunday go'zal sirlaridan biri Sohibqiron Amir Temur va turklarning buyuk sultoni Yildirim Boyazid o'rtasida uzoq yillar davomida bir-birlariga maktub yuborib turishganidir.

Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi jang 1402-yilning 25-iyulida bo'lib o'tadi. Manbalarda ta'kidlanishicha Turkiya sultonining qo'shini taxminan 160 ming jangchidan iborat bo'lgan. Sohibqiron armiyasi o'zining an'anaviy jangovar tartibi yasolda harakat qiladi.⁶Sipohning qirq qo'shun-qismdan tashkil etilgan humoyun markazi-qo'lga Sohibqiron bevosita qo'mondonlik qiladi. Shiddatli to'qnashuv keskin va uzoq davom etadi. Nihoyat Amir Temur qismlarining siquviga bardoshi qolmagan sulton qo'shinlari chekina boshlaydi. Boyazid qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi nafasgacha qarshilik ko'rsatishda davom etadilar. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g'alaba qozondi. Turkiya sultoni asir olindi. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar ham asir tushdilar. So'ng Amir Temur Anadoli yarim oralini egallab, O'rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi. So'ngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim bo'ldilar, Misr ham o'z itoatkorligini izhor etdi. Amir Temur Anqara, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini

egallab, Vizantiya va butun nasroniy olamining Boyazidga yig'ib bergan bojlariidan iborat katta boylikni qo'lga kiritdi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o'zi kattagina karvonga yuk bo'lgan. Bandi qilingan Boyazid o'rdugohga olib kelingach, Amir Temur unga hurmat va ehtirom ko'rsatadi. Uning vafotidan so'ng (1403-yil 9-mart) esa vorislariga himmat ko'zi bilan boqib, ularga beqiyos muruvvatlar qildi. Chunonchi Boyazidning to'ng'ich o'g'li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinladi. Edirna (Adrianopol) shahri uning poytaxti etib belgilandi. Anadoluning shimoli-g'arbiy qismi suyurg'ol sifatida Iso Chalabiya in'om qilinib, Bursa shahri uning poytaxtiga aylantirildi. Usmonli turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni Muso Chalabiya topshirdi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo'lmagan. Chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1407) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Xitoyga yurishining boshlanishi. Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O'trorda vafoti (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Amir Temurning vafoti haqidagi xabar garchi avval sir tutilsa, ammo ko'p vaqt o'tmay bu noxush xabar mamlakat bo'ylab tarqalib ketadi. Amir Temurning jasadi Samarqandga olib kelib dafn qilinadi.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu-jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1360-1386) da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz, ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ichki kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi.

II.Bob.Amir Temur harbiy mahorati tarixini jahon tarixida o'rganilishi.

2.1. Amir Temur harbiy yurishlari sabablari jahon tarixshunosligida.

Amir Temur 1371-1404 yillar orasida Mo'g'uliston, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya), Hindiston, Gurjiston, Armaniston, Kavkaz orti o'lkalari ustiga harbiy yurishlar qildi. Biz uzoq o'tmish, eski zamon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qonuniyati va o'sha zamonlardagi hukmron mafkuradan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday urushlarning ob'ektiv qonuniyatlari borligini ochiq anglaymiz. Birinchidan, qadim zamonlarda va o'rta asrlarda o'tgan xonlar va podshohlar o'z ijtimoiy tabaqasining namoyondalari. O'sha boy-badavlat tabaqalar tarafidan taxtga o'tqazib qo'yilgan kishilar edilar. Madomiki, shunday ekan, ular o'z tabaqasining maqsad va manfaatlarini himoya qilishlari, ya'ni katta urushlar olib borib, ularning yersuvlarini ko'paytirishlari mo'may o'lja olib, ularning boyligiga qo'shimcha boyluk qo'shib, ularning iqtisodiy salohiyatini oshirishlari kerak edi. Buning uddasidan chiqolmagan xon va podshohlarni ular tutib turmas va taxtdan uloqtirib tashlab, o'zlariga keraklisini o'tqizar edilar. Ikkinchidan, o'sha zamonlarda xonlar va podshohlar orasida jahongirlik ya'ni, jahonga hokim bo'lish, hech bo'lmaganda uning qismini bo'ysundirishga intilish odati bor edi. Masalan, Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Chingizxon mana shunday hukmdorlar jumlasidan edilar. Amir Temurning jahongirlik faoliyatida har ikki omil ham ma'lum darajada mavjud. Lekin masalaga haqqoniy yondoshadigan bo'lsak, Temur faoliyatida mamlakatning tinchligi va barqarorligini ta'minlash, ya'ni uni tashqi dushmandan himoya qilish, o'z xalqi, Vatanini jahonga mashhur etish istagi asosiy o'rinni egallagan. Mamlakatimizning XV asrning ikkinchi yarmidagi ahvoriga bir nazar tashlaylik, Chingizxon xurujidan beri shaharlarimiz vayron, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tushkun bir ahvolda qolgan edi. Nafaqat Movarounnahr, balki qo'shni mamlakatlarda ham feodal tarqoqlik, parokandalik va o'zaro urushlar avjiga mingan, ayrim harbiy siyosiy guruhlarining nafaqat o'zlarining yaqin qo'shnilari yerlariga, balki Movarounnahr ustiga ham qilgan talon-tarojlik hurujlari kuchaygan edi. Xalqimizda «qo'shning tinch-sen tinch», degan naql bor. qo'shni mamlakatlar tinch bo'lmagandan keyin, Movarounnahrda tinchlik, barqarorlik, iqtisodiy madaniy yuksalish qayoqdan bo'lsin? Amir Temur o'zining ichki va tashqi siyosatida asosan mana shu omilga suyanib ish tutdi. To'g'ri. Amir Temur ko'p yillik kurashlardan keyin o'z yurtida feodal tarqoqlik va parokandalikka barham berishga, el-yurtni mo'g'ullar istibdodidan ozod qilishga, markazlashgan davlat tuzib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtiridi. Lekin faqat birgina shuning o'zi bilan tinchlik va barqarorlik qaror topmaydi. Mamlakatning ichki ahvoli yaxshilanmaydi, uning xalqaro obro'si ortib qolmaydi. Buning ustiga Chingizxon xurujidan beri nafaqat Movarounnahr, balki mo'g'ulning oyog'i tekkan barcha mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli og'ir, siyosiy vaziyat yomon edi. Amir Temur o'tkir siyosatchi odam bo'lgani

uchun bu vaziyatni to'g'ri baholadi, unga alohida e'tibor berdi. Ayniqsa. Mamlakatimizning tevarak-atrofidagi vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarini ko'rdi. Faktlarga murojat qilaylik. Movarounnahrning sharqiy-shimoliy tarafida joylashgan Mo'g'ulistonni olib ko'raylik 1369 yili Ilyosxo'jaxon o'ldirilgandan keyin bu mamlakatda ham feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar kuchayib ketdi. Mamlakatning sharqiy qismida dug'lat amirlaridan Qamariddin, Ettisuv va Chu taraflarida anqo to'ra, Issiqko'latrofidagi o'lkalarda Mir Karimberdi, mamlakatning yana bir tarafida Mir Haqberdi o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib olgan edilar. Ular tez-tez Sayram va Toshkent, Turkiston va Farg'ona ustiga bosqin uyushtirib, tinch aholini talon-taroj qilar edilar. Masalan, Qamariddin va Mo'g'uliston beklari Temur saltanatining dastlabki yillarida Toshkentni bosib oldilar. XIV asrning 80-yillari boshlarida ular Andijon ustiga bostirib keldilar, uning tevarak-atrofidagi yerlarni talon-taroj qildilar, shaharning o'zini esa bir hafta mobaynida qamal ostida tutdilar. Mamlakatimiz janubida-Eronda, Iroq, Ozarbayjonda ham vaziyat yomon edi. 1336 yildan keyin, ya'ni Elxoniylar davlati (1256-1335 yillari Eron bilan Ozarbayjonni idora qilgan mo'g'ul sulolasi) inqirozga uchragandan keyin Eron, Ozarbayjon va Iroq ham feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar girdobida qoldilar. Masalan, Xurosonni sarbadorlar (1337-1381 yillarda idora qilgan) Kartlar (G'ur bilan Xirotni XIII-XIV asrlarda idora qilgan), Jonqurboniy (bular Obivard, Saraxs va Nisoni idora qilgan g'almoq qavmidan chiqqan sulola) qavmining amirlari bo'lishib oldilar. Eronning janubiy qismida Muzaffariylar sulolasi, Jurjon ustidan esa yana bir mahalliy sulola Sayyidlar, Iroq bilan Kurdistan ustidan Jaloiiriylar, Katta va Kichik Luriston ustidan Xorazspiyar va Inju sulolasi, Ozarbayjonda Qora quyunli turkmanlari o'z hukmronligini o'rnatdilar. Fojea shunda ediki ular o'rtasidagi munosabat ko'proq o'zaro kelishmovchiliklar va dushmanlik ruhida davom etardi: o'zaro ziddiyatlar va urush-talashlar kuchaygan edi. Movarounnahrning shimoliy va g'arbiy tomonlarida ham notinchlik hukmron edi. Oq O'rdada ham, Oltin O'rdada ham vaziyat yaxshi emas edi. Mazkur davlatlarda To'xtamish, O'rusxon, Po'latxon va qudratli amir Idiku (Edigey) mang'it o'rtalarida hokimiyat uchun murosasiz kurash davom etardi. Dashti qipchoq o'zbeklarning Movarounnahrda shimol va g'arbiy shimoliy taraflardan tahdidi va talonchilik xurujlari kuchaygan edi. Temurbek taxtga o'tirishi boisi o'laroq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lgan ijlbiiy o'zgarishlar o'z ifodasini harbiy ishida va harbiy san'atda ham namoyon etadi. Asosiy karvon yo'llari ustidan nazorat o'rnatish ulus qudratini yanada oshirish, xalq turmush tarzini yaxshilash singari ustivor maqsadlar yo'lida Temurbek o'sha davrda tengi yo'q harbiy kuchlari bilan Jata, Eron, Afg'oniston, Kavkaz, Iroq, Shom, Misr, Dashti Qipchoq, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga bir necha bor qo'shin tortib bordi va olamshumul zafarlar quchdi.

Temur va jahon sharqshunosligi. O'zbek xalqi uch ming yillik uzoq va boy o'tmishga ega. Moziyning xar bir davri tariximizdan bejiz ketmagan. Bu haqida qadimgi qo'lyozmalarda batafsil yozib qoldirilgan. Afsuski, istiqbolga qadar biz

xokimiyat tepasida hisoblangan qarib besh yuz yil hukmronlik qilgan Amir Temur va temuriylar sulolasi haqida to'liq haqiqatga ega emasdik.

O'zbek xalqi tarixida oltin davr xisoblangan Temuriylar uyg'onish davri xususida dunyo adabiyotida ko'plab ilmiy-tarixiy kitoblar, tarixiy romanlar hamda sahna asarlari yaratilgan. O'zimizda esa yaqingacha Amir Temur va uning avlodlari zolim podsholar sifatida talqin etib kelindi. Garchand Temuriylardan buyuk davlat arboblari, jo'mard sarkardalar, bunyodkor shoxlar, buyuk olim va mutafakkirlar, el ardoqlagan shoir va me'morlar yetishib chiqqan bo'lsada. shukuronalar bo'lsinkim, tariximizdagi buyuk shaxslar to'g'risida bor xaqiqatni aytish vaqti mustaqillik tufayli kirib keldi.

Amir Temur va temuriylar tarixi o'rganilib, ular faoliyatiga baho berilar ekan, ul zot va uning sulolasi vakillari haqida jahon sharqshunosligida aytilgan har bir fikr-mulohaza va yaratilgan xar bir asar atroflicha taxlil qilinishi lozim.

Buyuk jahongir va muzaffar Amir Temur bobomiz olamshumul tarixiy shaxs. Mana olti asrdan beri ul zotning ismi sharifi xalqlarning tillaridan, adiblar kitoblarining sahifalaridan tushmay keladi. Amir Temurni xayot chog'idayoq Iskandari soniy deb atay boshlagan edilar. Uni o'z davrida Yevropadagi Fransiya, Angliya, Kastiliya, Vizantiya, Vengriya va boshqa davlatlarning qirollari, Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarinng shoxlari u bilan yozishmalar olib borganlar.

Sohibqironni Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy), Qaysar (Yuliy Sezar), Chingizxon va Napoleonga qiyoslash ko'pgina muarrixlarning asarlarida tez-tez uchrab turadi. Bunday munosabatning va Amir Temur hamda temuriylar sulolasi tarixiga bo'l-gan ulkan qiziqishning sabablari fikrimizcha quyidagilardir.

Birinchidan, Amir Temur dunyoda eng katta Mar-kaziy Osiyodan to O'rtaer dengizigacha, Kichik Osiyo va Shimoliy Kavkazning katta qismini o'z ichiga olgan yirik markazlashgan davlat tashkil etgan.

Ikkinchidan, Amir Temur mag'lubiyat nimaligini bilmagan g'olib sarkarda sifatida biror-bir xalqqa qarshi emas, balki Movarounnahrni siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan birlashtirish va obod qilish uchun yurishlar olib borgan. Bu o'z navbatida Sohiqiron saltanatida iqtisodiy taraqqiyotga, savdo-sotiqning rivojlanishiga, fan va madaniyatning gullab-yashnashiga, me'morchilik taraqqiyoti va xalq farovonligiga olib kelgan.

Uchinchidan, Amir Temur buyuk davlat arbobi o'laroq o'z zamonasi uchun eng mukammal davlatchilik va huquqiy tizimni yaratgan.²² Fransuz olimi Alfons de La-Martin Amir Temur saltanatidan xayratlanib «Yevropada na Iskandar, na Attila va

²² . Hamidulla D. Amir Temurning harbiy mahorati. T.: "Yozuvchi", 1996. 67-bet.

na Moskovani zabt etgan Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas”, deb yozgan.

To’rtinchidan, Amir Temur buyuk bunyodkor, fan, madaniyat, san’at va ta’lim-tarbiya homiysi sifatida sharqdagi uyg’onish davrining ikkinchi bosqichini boshlab bergan, bu bilan jahon xususan, Sharq sivilizasiyasiga ulkan hissa qo’shgan.

Beshinchidan, Amir Temur o’zining shaxsiy fazilatlari, ya’ni kamtarinlik, e’tiqodlilik, iymonlilik, odillik, jasoratlilik, bag’rikenglik oldindan ko’ra bilishlik, tadbirkorlik kabi hislatlari bi-lan ajralib turgan.

Oltinchidan, Amir Temur dunyo davlatchiligi va ma-daniyati tarixida butun bir davr, ya’ni Temuriylar davriga asos solgan. Buyuk jahongir tashkil etgan saltanat 468 yil hukm surgan va Temuriylar sulolasi Mironshox Mirzo ibn Temur, Shohrux Mirzo ibn Temur, Ulug’bek Mirzo, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalar Sohibqiron an’analarini davom ettirganlar.

. Fransuz sharqshunoslik maktabi XVII asrdan boshlab shakllana boshlagan. O’sha davrda Yevropada Sharq mamlakatlariga bo’lgan qiziqish tobora ortib borgan. Sharq davlatlariga ko’plab ilmiy-tijorat ekspedisiyalari uyushtirilib, olingan ma’lumotlar umumlashtirib turilgan. Ayni paytda sharq, shu jumladan Markaziy Osiyo tarixi, madaniyati, fani va san’atiga qiziqish kuchaygan. Chunki Markaziy Osiyo o’zining jug’rofiy o’rni, boy madaniy merosiga ko’ra sharq va g’arb, shimol va janub o’rtasida ilmiy, madaniy, ma’rifiy va diniy g’oyalarni yoyishda muhim tarixiy o’rin tutgan.

Fransuz sharqshunosligida Amir Temurga bag’ishlangan asosiy sharq manbalarini fransuz tiliga tar-jima qilish diqqat markazida bo’lib kelgan. Bu sohada amalga oshirilgan katta ishlar sirasida Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sining F. Peti de Krua tarjimasi (Parij, 1722), Ibn Arabshoxning «Ajoyib al-maqayur fi tarixi Taymur» asarining «Buyuk Tamerlan tarixi» nomi bilan V. Vate tarji-masi (Parij, 1658), Abulg’ozi Bahodirxonning «Mo’g’ullar va tatarlar sulolasi tarixi»ning Baron Deme-zon tarjimasi (Layden,1726), Abdurazzoq Samarqandiyning «Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo’shilish o’rni» asarining A. Gallan tarjimasi (Parij, 1715), Ibn Xaldun «Tarjimai xoli»ning V. de Slan tarjimasi (Parij, 1852), Ibn Battuta «Sayohatlari»ning S. Defremeri va V. Sanginetti tarjimasi (Parij, 1853), Mirzo Ulug’bek «Ziji Ko’ragoniy»ning E. Sedilo tarjimasi (Parij, 1853),Mirxondning «Sosoniylar tarixi» asarining M. De-fremeri tarjimasi (Parij, 1845) va boshqa asarlarni ko’rsatish mumkin.

1787 yili taniqali fransuz olimi E. M. Langle «Temur tuzuklari»ni fransuz tiliga tar-jima qilgan. Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»sining chex olimi F. Tauer tomonidan qilingan fransuzcha tar-jimasi 1937 yilda Pragada chop etilgan bo’lsa,

²³“Hofiz Abruning Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»sidan parchalari» mashxur fransuz sharqshunos olimi A. Massening «Sharq antologiyasi» to'plamida 1950 yilda Pag'ijda nashr qilingan.”

Fransuz sharqshunoslari tarixiy manbalar tarji-masi bilan bir qatorda Amir Temur shaxsi, Temuriy-lar davri madaniyati va tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarni chop eta boshlaganlar. 1822 yili taniqli fransuz olimi Silvester de Sasi Amir Temurning Fransiya qiroli Charl VI bilan yozishmalari to'g'risida maqola yozgan. Fransuz Temurshunosligi javonidan munosib joy olgan asarlar jumlasiga Sanktiyonning «Buyuk Tamerlan tarixi» (Parij 1677), S. Mugadjaning «Chingizxondan Tamerlangacha mug'ullar tarixi» (Parij 1852), X. Moranvillening «Tamerlan va uning saroy ahli xotiralari» (Parij 1894), R Marganing «Tamerlan tarixi» (Parij, 1739), E. Bloshening «Tamerlan qabrtoshidagi bitiklar» (Parij, 1897), De Kruaziening «Temuriylar davrida Sa-marqand yodgorliklari» (Parij, 1891), J. Kapyuning «Tamerlan saltanati bo'ylab» (Parij, 1892), Ujfal-vi-Burdoning «Parijdan Samarqandga» (Parij, 1880), E. Galluaning «Tamerlan poytaxtiga sayohat» (Lil, 1898), I. Morelning «Samarqand yodgorliklari» (Lion, 1909), X Mozerning «Markaziy Osiyo bo'ylab» (Parij, 1885), I. Blonning «Markaziy Osiyoga sayohat chizgilari» (Parij, 1893), L. Kaunning «Osiyo tarixiga kirish» (Parij, 1896), J. de Rialning «Markaziy Osiyo hakida xotiralar» (Parij, 1875) kabilar kiradi.

Sohibqiron Amir Temur mavzusiga qiziqish Fransiyada XX asrda yanada kuchaygan. Xususan, Amir Temur-ning insoniyat tarixida tutgan o'rni va mavqei haqida o'nlab ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar yaratilgan. L. Buvaning «Temuriylar sivilizatsiyasi haqida qissa» (Parij, 1926), A. Dyurre va R Fovelning «Samarqand istexkomi» (Parij, 1901), A. Shampdorning «Tamer-lan» (Parij, 1249), M. Persheronning «Osiyo xoqonlagi» (Parij, 1951), E. Berlning «Yevropa tarixi: Attiladan Tamerlangacha» (Parij, 1946), R Grussenning «Sahro Soxibqironi» (Parij, 1939), M. Brionnpng «Tamerlan. Asrlar xotiralari» (Parij, 1963), V. Jegarning «Asrlar xotiralari. Tamerlan» (Parij, 1963), L. Kerenning «Samarqand jome masjidiiing naqshinkor rishtlari» («Osiyo» jurnal, Parij, 1967), J. Ubenning «Tamerlan shaharlarni qanday olardi» (Parij, 1963) va Chig'atoy xonligi va Xuroson: 1334-1380» (Parij Strasburg, 1976) kabi asarlar Temurshunoslikka qo'shilgan salmoqli xissadir.

Fransuz sharqshunoslari asosiy asarlarining qisqacha taxlili L. Kerenning «Tamerlan davrida Samarqand yo'li» nomli kitobida keng yoritilgan.

Professor L. K eren Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga barishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning eng asosiy kitoblaridan biri «Tamerlan

²³ Ahmedov B. Sohibqiron Temur. T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi», 1999- yil.

yohud Sohibkiron saltanati» ilk bor 1978 yilda bosilib chiqqan. Shundan so'ng u Fransiya va Shveysariyada bir necha bor nashr etildi. Bu kitobda Amir Temurning tarjimai xoli va saltanati tarixi solnomalari to'liq qamrab olingan. Bundan tashqari muallif Amir Temur davlatining taqdiri, xususan Temuriylar sulolasi, ya'ni Shohrux, Mirzo Ulug'beq Zaxiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida boy tarixiy ma'lumotlar hamda Temuriylar shajarasini bergan.

Professor L. Kerenning yirik asarlaridan yana biri «Temur davrida Samarqand yo'li» (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning «Ipak yo'li muloqot yo'li» dasturi doirasida tayyorlangan. Bu kitob Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur sal-tanati poytaxti Samarqandga safari haqidagi «Kundaliklar»ining ispan tilidan Fransuz tiliga izohli tarjimasidir. Bu kitob matbaa ijrosi, miniatyura va rangli suratlarga boyligi, ilmiy-tarixiy ma'lumotlarning keng ko'lami bilan boshqa tillarda chop etilgan nashrlardan alohida ajralib turadi.

L. Kerenning bu kitoblari uni dongi ketgan Temurshunos olimlar qatoriga qo'shgani bejiz emas. Ayniqsa, uni Sohibqironning Yevropadagi o'rni va xizmatiga oid fikrlari diqqatni jalb etadi. L. Keren Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanligini alohida e'tirof etadi.

Keren «Amir Temur» nomli ikki qism, olti pardali pesa ham yaratgan. Bu asarni B. Ermatov o'zbek tiliga tarjima qilgan. L. Kerenning Amir Temur to'g'risidagi Yevropa manbalariga doir bir qator maqolalari ham diqqatga sazovordir.

. L. Kerenni ta'kidlashicha Temurbek shaxsi va «Tuzuklariga» kelganda eng mashqqati ularni o'sha davr ruhida o'rganishdir. Temur tarjimai xoli yana shu bilan maroqliki, u noyob, o'ta qobiliyatli, harbiy, boshqaruv, san'at va siyosat kabi turli jabxalarda faoliyat ko'rsatgan shaxs. Agar uning nasliy kamtarinligini va o'sha Movarounnaxrdagi taxt uchun shiddatli ko'rashlar davrida xukmdorlikni qo'lga kiritishda qanchalik kuch sarflaganini olib qaraydigan bo'lsak o'zining barcha rejalarini amalga oshirishdagi zafarlari mo'jizali ko'rinadi. Bunda o'tmishdagi voqea va shaxslar xayotidan namunalar keltirish va qayyoslashga asoslanuvchi tarixchilar e'tiborini tortadigan alohida bir holat bor.

Temurbek beqiyos, uning miqyosi yuq. Biz Soxibqionning tarixiga doir Ashyoviy tomonlarni turli mamlakat solnomachilari tuzgan hujjatlar tufayli bilsakda, uning xukmdorligi, bashorat qobiliyati, zukkoligi va kuchli irodasi bilan do'st va muxolif kishilar hamda vokealarni idora qilish qo-biliyati siriligicha qoladi. Ayni uning idora qilish qo-biliyati XV asrdan beri tarixchilarni chalgitib, uning hukmdorligi va muzaffarligi jumboqlariga yechim topulmagan tarjimai xol mualliflarini bezdirib kelmoqda. Xatto yirik Fransuz tarixchisi Rene Grussening «Sahro Sohibqironi» nomli yirik asarida Temur xaqida mantiqsiz jumlarlar uchraydiki, ular Temur shaxsini asoslashda tarixchilar oldida turgan govlarni

eslatadi. Bulardan asosiylari «Zafarnoma» nomi bilan mashhur tarixiy solnomalardir. Bu muhim manbalar o'sha davrdagi kishilar, mamlakatlar, voqealar, janglar, urf-odatlar va xokazolar haqidagi qimmatbaho ma'lumotlarga juda boy. Lekin ular Temur avlodlariga xushomad ma'nosidagi qasidalardir. Birinchisi Nizomiddin Shomiyning «Zafarnomasi» Temur zamonasida bitilgan, lekin Temurning o'zi tomonidan rad etilgan asar.

Ikkinchisi, Sharafuddin Ali Yazdiyning nabirasi Ibroham xukmronligi davrida yozilgan bo'lib, birinchisidan mukammalroq. Lekin bunisi tugallanmagan bo'lsada, XV asrdan keyingi tarixchilar tomonidan keng foydalanib kelinadi. Aslida, shu asar Temurning bar-cha tarjimai xollari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Biroq undan tarixchilarning foydalanishlari masalasida davr ruhini va qalamkashlarning Temuriy-larga xushomadgo'yliklarini nazarda tutmoq kerak.

Sohibkiron davrida yozil-gan va xozirgi kunga qadar asosiy sanalib kelayotgan tarixiy manbalardan yana biri bu Ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqay'ur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)» asaridir. Mazkur kitob «Buyuk Tamerlan tarixi» nomi bilan 1658 yildayoq P. Vate tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan. Arabshox tarjimai holi mavjud. Ammo u Temurning salbiy tasvirini beruvchi, unga qonho'r, vayronachi, xasadgo'y deb qarovchi va xatto masxaraomuz xislatlarni tirkovchi asardir. Suriyalik yozuvchi Arabshoh Temur vafoti paytida endigina 12 yoshda Samarqandda bandi edi, u o'z asarini ancha keyin, Usmoniy shoxlardan birining saroyida bo'lgan davrida yozgan va shubxasiz, o'z xojasiga yoqish uchun Boyazid golibi xotirasini kamsitishga majbur bo'lgan. Lekin Arabshox kitob oxiriga qo'shimcha qilingan bir bobda Temur shaxsini tasvirlab, unga davlat tashkilotchisi, olim va rassomlar rahiamosi sifatida to'g'ri baho bergan. Yana Temurbekning zamondoshi, iqtidorli solnomachi, adib Hofiz Abru asarining asosiy matni Temuriy-lar xaqidagi asarlar ro'yxatida yoq.

Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga Temur saroyiga sayoxat kundaligi» garbda eng mashxur tarixiy manba hisoblanadi. Elchi Klavixoning asari g'oyat qimmatbaho manba, zero u Temur zamonasining bevosita nasroniy ovro'palik guvoxi. U juda aniqlik bilan yozgan, lekin faqatgina Temur xayotining so'nggi davrlarini qaymrab olgan.

XX asrning 90-yillarida o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalarining, xususan O'zbekistonning o'tmishi va xozirgi kuniga munosabat «qizil imperiya» davrida faoliyatini ancha susaytirgan fransuz sharqshunoslik maktabi vakillarini yana ilmiy izlanishlarga, ziyoratlarga, qaydimiy qo'lyozmalarni o'rganishga undadi. Natijada keyingi yillarning o'zida fransuz sharqshunoslari qalamiga mansub yangi-yangi kitob va risolalar chop etildi.

Hozirgi zamon fransuz Temurshunosligi namunalaridan L. Kerenning «Tamerlan yohud Soxibqiron sal-tanati» (Parij, 1978) «Tamerlan davrida Samarqand yo'li»

(Parij, 1990), J. P. Runing «Tamerlan» (Parij, 1991) va «Bobur» (Parij, 1986), V. Furniening «Markaziy Osiyo tarixi» (Parij, 1994) va uning taxriri ostida chiqqan «Samarqand 1400-1500: Tamerlan poytaxti: saltanat va uy'onish yuragi» (Parij, 1995) nomli kitob, «Boburnoma»ning J- L. Bake Gramon tarjimasi (Parij, 1986), «Ulug'bek astronomiya sultoni» (Parij, 1994) nomli to'plam va boshqa risola hamda asarlarni sanab o'tishning o'zi kifoya.

So'nggi yillarda Parijda Temuriylar mavzusiga oid ikkita yirik badiiy asar chop etildi. Birinchisi, mash-xur yozuvchi Amin Malufning «Samarqand» (Parij, 1990) romani bo'lsa, ikkinchisi Milena Nokovichning «Samarqandda yoqqan oltin yomg'ir» (Parij, 1994) ta-rixiy romanidir.

Fransiya Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi qoshida tashkil etilgan «Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti» olib borayotgan ilmiy izlanishlar va o'tkazayotgan anjumanlar Fransuz sharkshunoslik maktabi an'analari munosib ravishda davom etayotganidan dalolat beradi.

Fransiya Temurshunoslik maktabining xususiyatlari nimalardan iborat? Birinchidan, Fransuz olimlari o'z tadqiqotlarini boy tarixiy sharq qo'lyozmalariga, arxiv hujjatlari, Ashyoviy-moddiy dalillar hamda Yevropa shaharlarida yozilgan asarlar va manbalarga asoslangan xolda olib boradilar.

Ikkinchidan, ushbu mavzuni yoritishdagi mafko'raviy aqidalardan xoli ilmiy va xolisona yondashuv, xar bir tarixiy voqeaga hamda Amir Temur va Temuriylar faoliyatiga baho berishda turli manbalarni qiyoslab, muayyan xulosalar chiqarish Fransuz Temurshunoslik maktabining farqli jihatlaridandir.

1987 yil 22 martda Parijda «Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish Fransuz - O'zbek madaniy hamkorligi Uyushmasi tuzildi. Bu uyushmaning asoschilari va rahbarlari professor L. Keren va doimo o'zbekona liboslar kiyib yuradigan Frederik Bopartyus-Bressan xonimdir.

²⁴«Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ'ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati va san'ati, Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi, Sharq va G'arb madaniyatlarining chorraxasi bo'lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan xissasi bilan keng Fransuz ommasini tanishtirishdan iborat.»

Bu boradagi amaliy harakat sifatida 1989 yildan beri Uyushma o'zining «Temuriylar» nomli davriy nashrinng 15 ta sonini chop etdi. Bu jurnallarda Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyati va san'ati to'g'risida qimmatli maqola va ma'lumotlar bosilgan (maqolalar ro'yhati ushbu risolaning ilovasida keltiriladi).

²⁴ . Temur va Temuriylar saltanati. T.: «Qomuslar Bosh taxririya», 1996.

Uyushma Samarqand arxeologiya instituti olimlari bilan birgalikda «Temuriylar» jurnalining maxsus sonini ilmu-nujum (astronomiya) va ilmi bashorat (astrologiya) sohibi Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bagishlab, «Ulug'bek astronomiya sultoni» (Parij, 1994) nomi bilan chop etdi. Bu sondan o'rin olgan «Ulug'bek va yulduz burjlari» (F. Bopartyus-Bressan), «Ulug'bek maktabi va uning Usmonlilar Turkiyasi astronomiyasiga qo'shgan xissasi» (L. Keren), «Temuriylar davrida sharq mamlakatlarida astronomiya va astrologiya fanlarining taraqqiyoti» (J-P. Bude), «Ulug'bek ibn Shoxruh ibn Temur san'at homiysi» (E. Sime), «So'fizmning Temuriylarga va Ulug'bekka ta'siri» (T. Zarkon), «Astronomiya, san'at va siyosat» (I. Porter) nomli maqolalari sarlavxalarining o'ziyoq Mirzo Ulug'bek ilmiy merosiga bo'lgan qayziqayshning naqadar kuchli va har tomonlama ekanligini yana bir karra tasdiqdaydi.

2.2. Amir Temur diplomatiyasining jahon miqyosida o'rganilishi

. ²⁵«Amir Temur Yevropa davlatlari xukmdorlari bilan faol siyosiy va savdo munosabatlari olib brogan. Bularga o'sha davrdan hozirgacha saqlanib qolgan rasmiy hujjatlar, ya'ni diplomatik yozishmalar guvohlik beradi. Ashyoviy dalil tariqasida Amir Temur va uning uchinchi o'g'li G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjon xokimi Mirzo Mironshox bilan Fransiya, Ang-liya, Kastiliya va boshqa mamlakatlar qirollari o'rta-sidagi maktublar'ni ko'rsatish mumkin. Maktublardan ayrimlari Fransiya Milliy arxivida (o'zbek va rus tilida chiqqan deyarli barcha kitob va maqolalarda bu maktublar Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanadi, deyilishi noto'g'ri). Britaniya muzeyida va Ispaniya arxivlarida saqlanmoqda. Taniqli temurshunos olim, akademik B. Ahmedov haqli ravishda ta'kidlaganidek bu maktublarni maxsus o'rganmoq zarur.»

Biz faqat Parijda Milliy arxivda saqlanayotgan maktublarnigina o'zbek tilidagi tarjimasini va ularning qisqacha izohini berishga qaror qildiq xolos. Bu maktublar professor L. Kerenning «Tamerlan davrida Samarqand yo'li» nomli kitobida keltirilgan matnidan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Xozirgi kunda Fransiyaning Milliy arxivida 4 ta xat saqlanmoqda. Birinchisi, Amir Temurning Fransiya qayroli Sharl IV ga fors tilida yozgan xatining asl nusxasi;

²⁵ Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz. T.: «O'zbekiston», 1998. 18-bet

Ikkinchisi, shu xatning arxiepiskop Ioaanning o'zi yoki uning biron zamondoshi lotin tiliga tarjima qilgan nusxasi;

Uchinchisi, Fransiya koroli Sharl IV uning Amir Temurga lotin tilida yozgan xatining nusxasi;

Turtinchisi, Mirzo Mironshoxning uch nasroniy qiroлга yo'llagan xatining lotin tiliga tarjima qilingan nusxasi. Uning asl nusxasini Ioaan o'zida saqlagan va keyinchalik Angliya qiroliga ko'rsatgan.

Bu xatlar birinchi marotaba 1822 yilda fransuz sharqshunos olimi Silvestr de Sasi tomonidan «Tamerlanning Sharl VI bilan yozishmasi xaqidagi xotiralar» (Silvestre de Sacy. «Memoires sur une correspondance inedite de Tamerlan avec Charle VI», Memoires de L'Akademie des inscriptions et belles Lettres, 6, Paris, 1822, P- 470-522) va X Moranville tomondan «Tamerlan va uning saroyi haqida 1403 yili diplomatik bir kishi tomonidan yozilgan xotiralar» (maqolalarida maxsus o'rganilgan edi.

Amir Temurning Fransiya koroli Sharl VI ga maktubi forsiydan fransuz tiliga professorlar D. Majub, L. Keren va D. Boganovich tomonidan tarjima qilingan.

«Buyuk Amir Temur Ko'ragoniy umrlari boqiy bo'lsin! Fransiya qiroli do'stining yo'zgan ta'zimi va duolarini qabul qilgaylar.

Ko'p minnatdorchiliklardan so'ng ulug' qiroлга shuni ma'lum qilamizki, Fransisk ustoz bizga yetib keldilar va ulug' qiroл shon-shuhrati, buyukligi va oliy zot qalbi muhrlangan xatni keltirdilar. Bundan boshimiz osmonga yetdi. U bizga yana siz oliy zotlarining, Yaratguvchi panohida, katta armiya bilan yo'lga chiqqanningizni va umumiy g'animlarimiz ustidan g'olib kelganingizni yetkazdilar.

Shundan sung biz Fransisk Ioaan Marchessiya de Sultoniyani sizga bo'lgan vaqealarni so'zlab berishga yubordik. Mana endi biz ulug' qiroldan tez-tez maktub yo'llab turishlarini va xatlarda sihat-salomatliklari haqida xabarlar yuborib, bizlarni xotirjam qilishlarini kutmoqdamiz.

Yana siz savdogarlaringizni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizgin, barcha izzatlarini o'r-niga qo'yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimiz siz tomonlarga borsalar va ularga ham shunday izzat-ikromlar ko'rsatinglar. Mayli, ular hech qanday xavf-xatarsiz, to'siqsiz yo'l yursinlar. Dunyoni savdogarlar «ravon qiladilar, degan naqlni inkor etish befoyda. (...) uzoq, umr va salomlar yo'llaymiz. Ushbu 805 yilning muharrami- shavval oyida bitildi».

Bu Amir Temur diplomatik yozishmalaridan asl nusxasi saqlanib qolgan xatlardan biridir. Maktub 173X385 mm hajmdagi yupqa va yumshoq pergament qo-g'ozga

yozilgan. Bu xat yozuvi ichiga qilinib, uchga buklangan va muhrlangan holda 160X173 mm xajmdadir.

Maktub XV asr forsiy tilida bitilgan. Bu uslub mug'ul devonlarida keng tarqalgan, maktub bitishda tezkorlik va tejamkorlik uslubidir. Masalan, xatning fors tilidagi asl nusxasida "V" shaklidagi belgi bo'lib, Shu maktub egasi «Ulug' Amir Temur Ko'ragoniy umrlari boqiy bo'lsin! degan so'zlarni qo'shib o'qishga ishoradir. Yoki: «Fransiya qirol» so'zlari xoshiyaga bitilgan bo'lib, maktub kimga yo'llanayotganini anglatgan.

Maktubning birinchi qatorlarida zar izlari bor, qolgan qismi qoramtir rangda yozilgan. Muhr kungarasi (doirasi) 22 mm xajmda bo'lib, maktub ostiga bosilgan, ammo hozirgi kunga kelib deyarli butunlay o'chib ketgan. 1822 yili Silvestr de Sasi bu xatni o'rganganda uch burchak shaklida joylashtirilgan uch doirani va Amir Temur shiori «Rosti-rusti» izlarini zo'r bazo'r ilg'agan. Maktub 14 qator yozuvdan iborat, muhr va xoshiyada "1-qirollik arxivi" so'zlari yozilgan ikki muhr-surg'uch bor.

Amir Temurning o'g'li Mirzo Mironshoxning xristian shox va shaxzodalarga yo'llagan maktubi. «Mironshox Ko'ragoniy, ushbu bizning so'zimiz, xristian o'lkalardagilar ichidan saralab olganlarimiz, Qodiri taoloning nazari tushganlar, xristian Fransuz shoxlari va shaxzodalariga salomlar yo'llaymiz. Qalbimiz birodarlik xislariga to'lib, sizlarga shuni ma'lum qilamizki, agar sizlar xohish bildirib, biz tomonlarga kelsangizlar, istaklaringizni bajo kelturgimiz, illo bu so'zlarni mukarram oyida, Ollox tao-loning inoyati birla salom, tinchlik va do'stlik yo'llab yozmoqdamiz. Maktub bitmoqqa sabab shul bo'ldikim, butun Osiyo taqvodori Ioanni ikki mashhur shaharlaringiz Genuya va Venesiyaga maktub bilan yuborganimizdan so'ng u kishi saltanatingiz haqida mislsiz va xushmaqom xabarlar bilan qaytdi. Bundan tashqari, orada og'amiz Fransua Satryu keldilar va uni izzat-ikrom bilan kutib oldik. Ular keltirgan ma'lumotlar tufayli padari buzurukvorimiz va men sizlarga va odamlaringizga mehrimiz ortib, ko'p ishlar qildik va qilmoqdamiz. Chunki ularning maslahati bilan xaddan ziyod qudratimizni umumiy dushmanimizga qaratdik uni yengdik va zabt etdik. Sizlarga ma'lumki, bu ishlarni Olloxning ino-yati ila qildik va mamlakatimiz o'rtasidagi do'stlik yanada ravnoq topishini istab qolamiz. Otamiz mazkur taqvodorning bizga sodiqligini ko'rib, uni yengilmas qudratimiz, sa'y-harakatlarimiz va yurtimizning afzal tomonlarini Sizga so'zlab bersin uchun Siz tomonga yo'lladilar. Savdogarlarga kelsak istardikki, sizning savdogarlaringiz bizning yurtlarda, bizning savdogarlar sizlarning yurtlaringizda xavf-xatarsiz, hozirgidek yursalar. Nihoyat, agar e'tiqodimizda farq bo'lsa ham, bari bir barchaning manfaati, ayniqsa savdogarlarning manfaatlari yo'lida do'stlikni avaylashimiz darkor. Qolgan ishlarni mazkur taqvodor so'zlab berar, shu bois uni komili iymon bilan tinglang va tortgan ko'p iztiroblari uchun izzat-ikrom ko'rsating, biz shundek qilmoqdamiz.

Amir Temurning Kastiliya qiroli Genrix III ga yo'llagan maktubi. «Shox Temur, Temurbekdan Kastiliya va Ispaniyaning shahar va qishloqlari qiroliga: shon-shuhrat, martaba va sahiylikka boy umringiz boqiy bo'lsin. Ma'lumingiz bo'lsinkim, Payo va Fernan Sanchez orqali yuborgan do'stlik va ezgu niyat hislariga to'la maktubingizni bust-butun oldik. Maktubingizdagi keyingi yillar ichida saltanatingiz farovonligi, osoyishtaligi va odilligingiz haqidagi haqiqat bizda zarracha shubha tug'dirmaydi. Men Ollox taolodan saltanatingizni yo'ldan og'dirmasligini va uzoq yillar davru-davron surishingizni so'rayman. Paygambar nomidan u kishiga shon-sharaflar bo'lsin! Sizga shuni xabar qilamizki, Osmon o'g'li haddidek oshib, ayyorlik bilan farmonlar berib, orasiga nizolar solib, bizning ogohlantirishlarimizga parvo qilmadi va zarracha cho'chimadi. Shunda biz Olloxning nomi ila ko'p sonli tig'imizni u tomon burdik. Biz chiniqqan armiyamiz bilan uning jazosini berish uchun xristian podsholiklari mintaqalari tomon yurish qldik. Jangu jadal bilan ko'p xristian shahar va qal'alarini ozod etdik. U bilan bizning o'rtamizda jang avjiga chiqdi va biz uni Olloxning qudrati va shafqati bilan yengdik illo, Olloxdan boshqa mehribon yo'q, barcha narsalarning xaloskori Olloh taolodir. Biz Osmon o'g'li Boyazid Yildirim va uning o'g'li Mustafoni bandi qildik. Ular qo'limizga tushdilar, biz ularning askarlarini nayza va qilichdan o'tkazdik va qoni bilan yerni sug'ordik. Bizning odamlarimiz ular-ning jasadlarini yirtqichlarga yemish qildilar, tirik qolganlari sarosimada, yalangoch, oyoq yalang qochib qoldilar. Biz iltifot va Ollox taoloning rahm-shafqati ila barcha xristianlarga o'z shahar va qal'alarida hokimiyatlarini topshirdik. Bu voqealardan maktub eltuvchilar xabardor». Bu maktublarda bitilgan satrlar bundan qariyb olti asr avval yozilganiga qaramay, ulardagi ayrim jihatlar xuddi bugungi kunimizning o'ta muhim da'vati kabi jaranglab turibdi. Dunyo tojirlar bilan obodligini, saltanatning ulug'vorligi avvalo o'zga saltanatlar ulug'vorligini e'tirof etish, rasmiy va gayrirasmiy tafovutlarga qaramay, fuqarolar izzat-ikromni bajo keltirish, insoniy huquq va erkinliklarga qat'iy amal qilish bilan belgilanishi anglab yetilmoqda. Sohibqiron Amir Temurning diplomatik yozishmalari, birinchidan, Ovrupani o'zidan ancha avval uyg'ongan Sharqqa hamisha qo'l cho'zib kelganligini; ikkinchidan, o'z navbatida Sharq ham dunyoning bu chet o'lkalari bilan aloqa bog'lashga, hamkorlik qilishga, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishga, e'tiqodiy tafovutlarga qaramasdan, tujjorlarni izzatlashga, xukmronliklarini himoya etishga harakat qilganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. ²⁶«Tarix takrorlanadi. Bashariyat tarixi bo'laklarga bo'linmaydi. U yahlit va yagonadir, insoniyatning o'zaro bir-biriga suyanib, bir-birini to'ldirib va bir-biridan bahra olib davom etuvchi taraqqiyot jarayonidir.» «Buyuk ipak yo'li» an'analari

²⁶ . Abdirahimov M. Temur va To'xtamishxon. T.: «G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti», 2000.

tiklanib borayotganligi bunga yaqqol misoldir. Sharq va G'arb olimlari ham insoniyat umumiy ta-rixini yaratish yo'lida jumladan, Markaziy Osiyo ta-rixi, uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lmish Amir Temur va Temuriylar sulolasi tarixini yaqin hamkorlikda yaratmoqlari lozim. Bu tarixni umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yozishda saqlanib qolgan tarixiy manbalardan, diplo-matik yozishmalardan foydalanish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada Amir Temurning Sharq va Yevropa davlat boshliqlari bilan yozishgan maktublarini o'rganish va tarjima qilish vaqti keldi deb o'ylaymiz.

X U L O S A

Amir Temur buyuk davlat asoslarini barpo etdi. Uning davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichini tashkil etadi. Saltanatda barcha sohalarda tub burilishlar, yuksalishlar kuzatilgan. Taraqqiyot uchun xizmat qilgan Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyat darajasiga yetib ulgurgan.

Lekin markazlashgan va adolat tamoyillariga asoslanib boshqarilgan mamlakat asoschisining vafoti Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyatni o'zgartirib yubordi. Uning vafotidan keyingi to'rt yil Temuriylar davlatining keyingi taqdirini belgilab berdi.

Temur vorislik maydonida o'zidan ilgari hukmronlik qilgan mo'g'ullar singari baxtli bo'la olmadi. Mo'g'ul hukmdori katta bir mamlakatning asosini tuzdi, o'g'illari va vorislari vositasida uni kuchaytirdi hamda kengaytirdi. Temur esa hokimiyatning binosini baland ko'tardi; ammo uning farzandlari kuchli suyanchiq bo'lish o'rniga, noahillik va o'zaro urushlar qilib, bu imoratning nurashiga va qulashiga olib keldilar. Chingiziylar O'rta va G'arbiy Osiyoda ikki asrga yaqin hukm surdi. Temurning vorislari esa, garchi ular orasida hokimiyat ishlaridagi mahorati, porloq iste'dodi va olijanoblighi bilan kelajak nasllarni uzoq davr hayratga soladigan zotlar bo'lsa-da, saltanatni atigi bir asrga yaqin boshqarib turdilar, xolos.

Temur vafotidan oldin Pirmuhammad Mirzoni o'zining taxt vorisi deb vasiyat qilgan edi. Lekin Sohibqironning vasiyatiga amal qilinmadi, har kim o'z bilganicha ish tutdi, amirlarning ichgan qasamlari qasamligicha qoldi. Birinchi bo'lib qasamdan Temurning yaqinlari kechishdi. Shayx Nuriddin bilan Shoh Malik ham, Temurning bevalari ham vasiyatga xilof ravishda hokimiyatni Shohruhga topshirish payiga tushdilar. Shuning uchun ular Temurning o'limini Xalil Sultondan ham, Sulton Husayndan ham sir tutdilar. Toshkent va Sayramga borgan choparlar shahzodalarga gapning rostini aytishmadi. Faqat Sohibqironning og'ir betob bo'lib qolganini xabar qildilar, xolos. Hirotga yuborilgan Shayx Temur Qavchin esa bo'lgan gapni ochiq-oshkor aytdi. Shundan keyin Shohruh o'z nomiga xutba o'qittirib, pul zarb ettirdi.

Sohibqiron vasiyatini dastlab vorislari, so'ng ayrim lashkarboshilar va amaldorlar buzib, ko'proq shaxsiy manfaatlarini ko'zlab ish yuritdilar. Natijada, salkam besh

yil mobaynida behuda qonlar to'kildi, boyliklar talandi va parokandalik hukm surdi. Shu yillarda saltanat ichida boshlangan boshboshdoqlik tobora avj olib, uni ichidan zaiflashtirib bordi. Podshohlarning, shu jumladan, Amir Temurning ham ko'p xotinliliği o'zaro kurashlarni avj oldirdi. Chunki otasi bir, onasi boshqa farzandlar va nabiralarning har biri o'zini taxtni egallashga haqli deb hisoblardi.

Hali Sohibqironning jasadı sovumasdanoq temuriy shahzodalar, boshliqlar va arkoni davlat orasida parokandalik boshlanib ketdi. Sohibqironning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan shahzodalar tez kunda vasiyatdan yuz o'girib, taxt uchun kurashga tushib ketdilar, harbiy va ma'muriy boshliqlar esa guruhbozliklarni avj oldirdilar. Saltanatni boshqarishda temuriy shahzodalar, sahroyi chingiziylar shahzodalaridek hamjihatlik bilan birlasha olmadilar. Aksincha, o'zaro qonli nizolarni boshlab, mamlakatni janggohga aylantirdilar va mehnatkash xalqni og'ir musibatlarga duchor qilib, mamlakatning parchlanib ketishiga sababchi bo'ldilar.

Temur vafotidan keyin qariyb besh yil davom etgan o'zaro urush va isyonlar, shubhasiz mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta'sir qilib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Temuriyzodalar o'ly hokimiyat uchun, noiblar o'z viloyatlarida mustaqil bo'lib olish uchun kurashdilar.

Sohibqiron vafotidan keyingi dastlabki yillarda murakkab vaziyatni bartaraf etib, saltanat jilovini mahkam ushlashga qodir kuchli shaxs, ya'ni hukmdor topilmadi.

Bu paytda qonuniy taxt vorisi Pirmuhammad sodir bo'layotgan voqealardan batafsil xabardor bo'lmay, g'aflatda edi. Yoshligini jang maydonlarida o'tkazgan Pirmuhammadxon keyingi paytlarda aysh-ishratga berilib, hukumatni boshqarish ishini ochko'z va hiylagar vaziri Pirali Tozga topshirib qo'ygan edi. Pirmuhammadxon bobokaloni Temurning vafoti haqidagi xabarni ishrat bazmida oldi. Bu paytda Samarqandda, saroy doirasida parokandalik va qarorsizlik hukm surar edi. Agar Pirmuhammadxon sharob kosalarini qo'yib, qo'lga urush qurolini olib, darhol askar to'plab Samarqand ustiga kelganda, buvasining taxtiga ega bo'lar edi. Lekin u kechikdi. Mironshohning Toshkentda yashayotgan 12 yashar o'g'li Xalil Sulton Mirzo harakat boshladi. U bu yerdagi bir necha obro'li zobitlarning quvvatlashi bilan buyuk bobosining taxtiga da'vogarlik qilib, to'siqchiliksiz Samarqand ustiga yurib, shaharni egalladi.

Garchi Shohruh 1405-1408 yillarda Xalil Sultondan Samarqandni tortib olib, otasi Amir Temurning to'ju taxtni egallashga harakat qilsa-da, ammo uddasidan chiqqa olmaydi. Bunga Balx, Seyiston, Xuroson va Ozarbayjonda temuriy shahzodalar va ayrim iqtidorli amirlarning birin-ketin ko'tarib turgan g'alayonlari jiddiy to'sqinlik qiladi. O'zaro taxt talashish natijasida Temurning valiahdi Pirmuhammad va uchinchi o'g'li Mironshoh g'alayon va fitnalarning qurboni bo'ldilar. Mironshohning halokati tufayli Ozarbayjon va Iroq temuriylar qo'lidan ketdi. G'alayonlardan foydalangan Mo'g'ulistondagi mo'g'ullar bosh ko'tardi. Oltin O'rda amiri Idiku Xorazmni egallab, Buxoro atrofida talonchilik bilan shug'ullandi.

To'g'ri, Shohruh kech bo'lsa-da, poytaxtni qo'lga kiritdi, lekin bungacha mamlakatda parokandalik boshlangan, saltanatning turli burchaklarida markaziy hokimiyatga bo'ysunmasdan, ajralib chiqish harakatlari sodir bo'layotgan edi.

Bunday boshboshdoqlikka barham berish maqsadida Shohruh boshlagan harakat mamlakat fuqarosining ko'pgina tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Shu boisdan shohruh Temur hukmronligi o'rnatilgan viloyatlarni o'z qo'l ostiga olishga hamda mamlakatda osoyishtalik o'rnatishga harakat qildi.

Lekin Shohruh ham ba'zi xatolarga yo'l qo'ydi. U poytaxtni Hirotga ko'chirib katta xato qildi. Amalda mamlakat ikkiga ajraldi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Xuroson davlati bo'lib, unga Shohruh boshchilik qilardi va Hirot uning poytaxti edi. Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga Ulug'bek davlati bo'lib, uning markazi Samarqand shahri edi.

Poytaxtning Hirotga ko'chirilishi va saltanatning parchalanishi davlatning kuch-qudrati hamda xalqaro mavqeining pasayishiga olib keldi. Bitiruv-malakaviy ishi doirasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- Amir Temur davrida yaratilgan manbalar, u haqda qilingan ilmiy ishlar va yozilgan asarlarning asosan Sohibqiron faoliyatiga bag'ishlanganini hisobga olib, uning vafotidan keyingi tarixiy jarayonlarni kengroq o'rganish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T: Sharq. 1998.
2. Amir Temur ko'ragon. Tuzuki temuriy. T.: "Fan", 1999.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: "O'zbekiston", 1996.
4. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. T.: "Mehnat", 1992.
5. Fayziev A. T. Temuriylar shajarasi. T.: "Yozuvchi", 1995.
6. Hamidulla D. Amir Temurning harbiy mahorati. T.: "Yozuvchi", 1996.
7. Rahmatullaeva O. Amir Temur saltanati tarixnavisligi. T. 2010.
8. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi», 1999.
9. B. Axmedov. Amir temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi", 1996.
10. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi o'rni va roli haqida. Toshkent, 1960.
11. Fayziev T. Temuriylar shajarasi. Toshkent, 1995.
12. M Ivanin Ikki Buyuk Sarkarda. Toshkent, 2017.
13. Marsel Brion. Men kim Sohibqiron Jahongir. 2016.
14. B.Axmedov. Amir Temurni yod etib. T.: "O'zbekiston", 1996.
15. Amir Temur saboqlari. T.: "SHarq", 1998.
16. Amir Temur Ko'rog'on. T.: "Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari instituti", 2007.
17. B.Axmedov. Tarixdan saboqlar. T.: "O'qituvchi", 1994.

- 18.M.Abdirahimov. Temur va To'xtamushxon. T.: "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti", 2000.
19. E.Azimov. Amir Temur saltanati. T.: "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti", 1996.
- 20.Muxammad ali. Amir Temur solnomasi. T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi", 2008.